

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



TURKIY TILLAR FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi

4- „B“ kurs talabasi

YO‘LDOSHEV JAVLONBEK YUSUFBOY O‘G‘LINING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «ADABIYOT DARSLARIDA JAHON ADABIYOTI
NAMOYANDALARI HAYOTI VA IJODINI O‘RGATISH
(10-SINF MISOLIDA)»**

Talaba:

J.Yuldoshev

Ilmiy rahbar:

f.f.d., prof. K.Quramboyev

Kafedra mudiri:

f.f.n., dots. S.Matyakupov

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2022- yil
____- _____dagi ____- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2022

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-„B“ kurs talabasi Yo‘ldoshev Javlonbek Yusufboy o‘g‘lining „Adabiyot darslarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o‘rgatish (10-sinf misolida)“ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga „____“ bahosi qo‘yilsin.

„____“ _____ 2022- yil

DAK kotibi:

A.Kamalov

M U N D A R I J A:

Kirish. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	4
I bob. 10- sinf adabiyot darslarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o‘rgatish	
1.1. Adabiyot darslarida o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish	9
1.2. 10- sinfda jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o‘rgatishda savol-topshiriqlardan foydalanish	21
II bob. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatish usullari	
2.1. 10- sinfda jahon adabiyoti namoyandalari ijodini o‘rgatishga bag‘ishlangan dars mashg‘ulotlarini noan’anviy usullarda tashkil etish texnologiyalari	34
2.2. Jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanib o‘rgatish	47
III bob. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi	
3.1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining dastur va darsliklarida (10-sinf) jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodining berilishi	55
3.2. Jek London va Alfons Dode asarlarini o‘rgatish bo‘yicha namunaviy dars ishlanmalari	58
Xulosa	66
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashishtalab etilmoqda. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkabdir. Ta'lim samaradorligi pedagog va o'qituvchi faolligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning alohida ta'kidlaganlaridek, „biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz“¹. Shuning uchun biz ta'lim sohasiga yangicha yondashmog'imiz lozim.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida adabiyot fanidan jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodinio'rgatish usullari, ularning ta'lim tizimidagi ilmiy-amaliy ahamiyati, o'quvchilarning o'quv-biluv malakasini shakllantirishdagi o'rni to'g'risida metodik yordam ko'rsatadigan qo'llanmalarga ehtiyoj katta. Chunki dunyoda o'z milliy adabiyoti qobig'ida o'ralib qolgan hech bir adabiyot yo'q. Umumta'lim maktablarimizni tugatayotgan o'quvchilar bizning kelajakdagi shoirlarimiz, adiblarimiz, o'qituvchilarimiz yoki boshqa kasblarning ham egalari ekanligini hisobga olsak, ularda jahon adabiyotining nodir durdonalariga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularning mag'zidagi o'ziga xoslikni, har bir adabiyotning yetuk namoyandalarining ijodini chuqur va har tomonlama o'rgatish zarurligi va bunday maxsus qo'llanmalarning mavjud emasligi bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyot darslarida ijodkor hayoti va ijodini o'rgatish borasida R.Qoriyevaning „Adabiyot darslarida badiiy tekstni tahlil qilish“ („O'qituvchi“, Toshkent, 1983), Zunnunov A. va boshqalarning Adabiyot o'qitish metodikasi („O'qituvchi“, Toshkent, 1992), Safo Matjon.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. –B. 124.

Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (Toshkent, „O‘qituvchi“, 1996) kabi qo‘llanmalarida ancha ishlar qilingan. Shuningdek, Jek London, Alfons Dode asarlari o‘zbek tiliga ko‘p bora tarjima qilingan va bu ish hamon muvaffaqiyatli davom ettirilmoqda. Hayoti va ijodi bo‘yicha maqolalar, tezislar e‘lon qilinmoqda.² Ammo mazkur adiblar ijodini umumta‘lim maktablarida o‘rgatish, darslik matnlaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish, uning tilsimlarini ochish, o‘quvchilarning o‘quv-biluv samaradorligiga erishish orqali ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatish borasida muayyan qo‘llanma yaratilmagan. Bitiruv malakaviy ishda yuqoridagi kabi har xil davr va mavzularda yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar ham tahlilga tortildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Bitiruv malakaviy ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasining „Turkiy xalqlar adabiyotining dolzarb masalalari: adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon, folklorshunoslik, adabiy aloqalar, tarjimashunoslik va metodikani tadqiq etishda innovatsion yondashuvlar“ mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan. Bitiruv malakaviy ishi rejalari kalendar rejaga muvofiq, ilmiy rahbar bilan hamkorlikda belgilangan muddatlarda ishlab chiqilgan va ularning har biri ishning muayyan qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Darslik matnida berilgan adiblar hayoti va ijodi, uni o‘qitish metodikasini o‘rganmasdan, mashg‘ulotlar jarayoni samarali usullar tizimini yaratmasdan, bu boradagi ilmiy-uslubiy farazlar, hukm-xulosalar hamda metodik tajriba-tadqiqot natijalarini umumlashtirmasdan, natijali tavsiyalar ishlab chiqmasdan turib, biron bir natijaga erishib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra ushbu bitiruv

² Жек Лондон. Мартин Иден. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2016. 598 б.; Жек Лондон. Мухаббат ва матонат (Таржимон: Саиджалоли Саидмуродов). – Тошкент: O‘zbekiston, 2018. 224 б.; Jek London. Hikoyalar (Tarjimon: Shahlo Obloqulova). – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. 172 b.; Jek London. Bir kunlik qo‘nalg‘a (Tarjimon: Muhsin Hamidov). – Toshkent: Zabarjad-media, 2020. 224 b.; Jek London. Martin Iden (Tarjimon: Qodir Mirmuhamedov). – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. 480 b.; Anvar Namozov. Jek London: Hayot va ijod mashaqqatlariga basma-bas. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/anvar-namozov-jek-london-hayot-va-ijod-mashaqqatlariga-basma-bas>
<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/alfons-dode-1840-1897-fransiya>.
<https://ziyouz.uz/jahon-nasri/alfons-dode/>
<https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/alfons-dode-songgi-saboq.html>
<https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/alfons-dode-songgi-saboq.html>

malakaviy ishida 10-sinfda jahon adabiyoti namoyandalari: Jek London va Alfons Dode hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi o'rni va rolini aniqlash, o'quvchilarning kitobxonlik madaniyati yuzasidan o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish usullarini o'rganish, eng ma'qullarini amaliyotga joriy qilish, adabiy ta'lim yutug'ini ta'minlashga qaratilgan eng qulay va samarali usullarini tadqiq etish kabi vazifalarni hal etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqotning vazifalari. Yuqoridagi maqsadni yuzaga chiqarish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- tadqiqot natijalarining uslubiy ahamiyatini belgilash;
- darslik matnidan kelib chiqib, Jek London va Alfons Dode hayoti va ijodiy faoliyati bo'yicha matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- umumta'lim maktablarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarda savol va topshiriqlar ustida ishlash, umumlashtirish orqali ijodiy fikrlash malakalarini rivojlantirish;
- 10- sinfda jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o'rgatishga bag'ishlangan interfaol metodlar va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- umumta'lim maktablarining adabiyot fani o'qituvchilari uchun namunaviy dars ishlanmalarini yaratish;

Tadqiqotning obykti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishda umumta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun nashr etilgan „Adabiyot“ darslik-majmuasi, shuningdek, har xil davr va mavzularda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar va o'quv qo'llanmalari tahlilga tortildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi, qaror va farmonlaridagi adabiyot va san'at, ma'naviyat va ma'rifat hamda ilmiy mafkura va milliy g'oya masalalari yuzasidan ilgari surilgan nazariy fikrlar ishning metodologik asosini tashkil qiladi.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishda umumta'lim maktablarida Jek London hamda Alfons Dode hayoti va ijodini o'rgatish borasida bir qator

samarali usullar tavsiya etiladi. Jumladan, matn ustida ishlash, savol-topshiriqlar, ijodkorning asarlariga doir rasmlar, namunali ko'rsatmalar, o'quv topshiriqlari, dars ishlanmalar, lug'atlardan foydalanishning yo'l-yo'riqlari xususida ilk bor ilmiy-uslubiy qarashlar bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan jahon adabiyoti, adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar, turli metodik tavsiyanomalar, ko'rsatmalar yaratishda, umumta'lim maktablarida mahorat darslari va ochiq dars mashg'ulotlarini tashkil etishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Bitiruv malakaviy ishida o'rganilgan asosiy jihat adabiyot darslarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o'rgatishga bag'ishlangan darslarni to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ilmiy-metodik asoslari haqida so'z yuritildi. Tadqiqot natijalari bo'yicha Nukus shahridagi 38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tgan pedagogik amaliyot davrida bir necha tajriba sinov darslari tashkil etildi hamda eng yaxshi usul hamda vositalar amaliyotga joriy etildi. Mavzu bo'yicha ochiq dars mashg'uloti tashkil qilindi.

2022-yil aprel oyida Nukus davlat pedagogika institutida o'tkazilgan „Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta'lim texnologiyalari“ mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida „Umumiy o'rta ta'limda „Hayotga muhabbat“ asarini o'qitish texnologiyalari“ tezisimiz e'lon qilindi³.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv ishi kirish, „10- sinf adabiyot darslarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o'rgatish“, „Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish usullari“, „Ta'lim bosqichlari dastur va

³ Yo'ldoshev J. Umumiy o'rta ta'limda „Hayotga muhabbat“ asarini o'qitish texnologiyalari / „Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta'lim texnologiyalari“ mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Nukus, 2022. – B. 332-336.

darsliklarida mavzuning berilishi“ deb nomlangan uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. 10- SINF ADABIYOT DARSLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI HAYOTI VA IJODINI O‘RGATISH

1.1. Adabiyot darslarida o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlaridagi eng yaqin hamrohi darsliklar va kitoblar hisoblanadi. Chunki darslik maktabda ham, uyda ham o‘quvchilarni fan asoslari bilan tanishtiruvchi xazina vazifasini bajaradi. Ammo bu xazinadan to‘g‘ri va unumli foydalangandagina u o‘z tilsimlarini ochadi. O‘quvchilarning o‘quv-biluv samaradorligiga erishish orqali ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatish ko‘p jihatdan darslik matni ustida ishlash malakasini shakllantirish va tarbiyalashga bog‘liq.

Darslik matni ustida ishlash boshqa turdagi adabiyotlar bilan ishlashdan farqli o‘laroq, butun o‘quv yili davomida qat’iy tartib asosida olib boriladi.

O‘quv yili boshidayoq, o‘qituvchi tomonidan joriy yildagi dastur bo‘yicha sinfda o‘rganiladigan adabiyot fanining o‘ziga xos xususiyatlari, uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad, o‘quvchilarning oldingi o‘quv yilida adabiyotdan qanday nazariy bilimlarni egallagani, bu yilgi adabiy ta’limni tashkil etish yo‘llari amaldagi darslik mundarijasi asosida belgilab chiqiladi. O‘qituvchining vazifasi shu bilan cheklanmasdan, har bir mavzuni o‘rganish chog‘ida o‘quvchilarning darslikka munosabatiga doir tegishli yo‘l yo‘riqlar berishi orqali butun o‘quv yili mobaynida davom etadi.

Darslik matni ustida ishlash vositasida biror bir samaraga erishish uchun, avvalo, uning tarkibini aniqlash zarur. Professor A.Zunnunov „Ta’lim to‘g‘risida“gi davlat qonuni asosida yaratiladigan adabiyot darsliklari tarkibini quyidagicha belgilaydi: „1. Matnlar; 2. Matndan tashqari tarkiblar“.⁴ Taniqli olim matn tarkiblarini o‘z navbatida „yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyati, badiiy asar, asar tahlili, adabiy-nazariy tushunchalar“dan iborat asosiy, „qo‘shimcha o‘qitiladigan asarlar, sinfdan tashqari o‘qitiladigan asarlar“dan tashkil topgan

⁴ O‘zbek tili va adabiyoti darsliklari mezon. – Toshkent, O‘zPFITI, 1994, 11-bet.

qo‘shimcha, „lug‘atlar – izoh – sharhlar“dan iborat izohlovchi qismlarga bo‘lib ko‘rsatiladi. Savol-topshiriqlar, yozuvchilarning fotosuratlar, asarlarga doir rasmlar, namunali ko‘rsatmalar, rejalar, kirish so‘z, so‘nggi so‘z, epigraf va sarlavhalarni matndan tashqari tarkiblar sifatida izohlaydi.

Demak, o‘quvchining jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi bo‘yicha darslik matni ustidagi faoliyati quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

1. Tayyorgarlik davri. Bu bosqichda o‘quvchilar darslikda berilgan asarlar muallifi, sarlavhasi, epigrafi, janri, bob va qismlari bilan tanishadilar, o‘tilgan mavzular bilan aloqasini aniqlaydilar.

2. Bilimlarni o‘zlashtirish. Bu bosqichda asosiy matnni o‘qib-o‘rganish orqali mavzuni o‘zlashtirish yo‘lidan boriladi. Matnda ajratib ko‘rsatilgan nazariy tushunchalar bayoni va xulosalarga alohida e‘tibor beriladi. Tushinilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohlanadi.

3. Bilimlarni mustahkamlash. Bilimlarni mustahkamlash jarayonida o‘qib o‘rganilgan matn mazmuni hikoya qilinadi. U to‘la o‘zlashtirilmagan taqdirda qayta o‘qiladi. Matn oxiridagi savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Reja tuzilib, zarurat bo‘lsa, konspekt yozdiriladi.

4. Yakuniy bosqich. Matnda ilgari surilgan asosiy fikr, yetakchi g‘oya oldingi darslarda yoritilgan masalalar bilan taqqoslanadi. O‘rganilgan bilimlar umumlashtiriladi va xulosalanadi.

O‘quvchilarning kitob ustida, birinchi navbatda, darslik matni bilan ishlashni bilmasligining turli obyektiv va subyektiv sabablari (nazariy qismlari tilining o‘ta rasmiy va og‘irligi, savol-topshiriqlarning jo‘nligi, suratlar va boshqa qo‘shimcha didaktik materiallarning tegishli berilmasligi va hokazo) bor. Ammo eng muhimi, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatida asosiy manba bo‘lgan darslik matni ustida ishlashga talab darajasida o‘rgatilmasligidir.

O‘quvchining matn ustidagi ishi o‘rganilayotgan asar muallifi va sarlavhasi bilan tanishishdan boshlanadi. Muallifni aniqlash asarning mavzu doirasi, janriy xususiyatlari bilan bevosita aloqadordir. Ko‘pchilik o‘quvchilarning o‘zlari o‘qigan asar mualliflarini bilmasliklari shunchaki e‘tiborsizlik natijasi bo‘lmay,

badiiy didning nochorligi oqibati hamdir. Asar sarlavhasi bilan tanishish ham uning mutolaasida muhim o'rin tutadi. Negaki, to'g'ri qo'yilgan sarlavha asar mazmunini o'zlashtirishga yo'l ochadi. Sarlavhada iste'dod belgisi o'z aksini topishini unutmaslik kerak. O'quvchi sarlavhani esda tutmas ekan, asar mazmuni ham xayolidan o'cha boradi.

Adabiyot darsliklarining nazariy qismi matni adabiyotshunoslik fanida isbotlangan u yoki bu haqiqatning adabiy til vositasida ifoda etilgan yozma bayoni hisoblanadi. Uni yaratish qanchalik qiyin kechsa, tushunish ham shu qadar mushkulliklarga ega. Bu mushkulliklarning eng birinchisi ayrim so'z va iboralarining notanishligi bilan izohlanadi.

Kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilarning lug'at boyligi kam, ammo yodlash qobiliyati ustunligi tufayli ular ko'p hollarda uyga berilgan vazifalari deyarli aynan matndagi kabi yoki unga yaqinlashtirib gapiradilar. Ularning ayrimlari o'z nutqida ishlatgan notanish so'zlarni matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib tushuntirsalar, ayrimlari umuman bilmaydilar. Har ikki holatda ham matn mazmuni o'zlashtirilgan deb bo'lmaydi.

Bunga erishish uchun matn mazmunini iloji boricha o'quvchining o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishiga e'tibor bermoq kerak. Shunday tadbir natijasidagina o'quvchi matnda ishlatilgan so'zlarning sinonimlarini izlashga majbur bo'ladi. Bunday izlanish, o'z navbatida, uning lug'at boyligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik amaliyot davrida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning asar matnidagi so'z va iboralar ma'nosini chuqur tushunib yetishi, ilgari surilayotgan g'oya va asar mazmunini to'la o'zlashtirishi asosiy mezondir. Biz bunga to'la ishonch hosil qilish uchun pedagogik amaliyot davrida Nukus shahridagi 38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tgan pedagogik amaliyot davrida bir necha tajriba sinov darslari tashkil etildi hamda eng yaxshi usul hamda vositalar amaliyotga joriy etildi.

Alfons Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasida
qo‘llanilgan so‘zlar raqamini ularning ta’rifi bilan mos juftlang.

1	Mosye	A	Uzunligi tizzagacha keladigan ustki kiyim
2	Meriya	B	Ko‘l nomi
3	Syurtik	D	Orqa o‘rindiqda o‘tiruvchi qariya
4	Xmel	E	Shahar boshqarmasi binosi
5	Saara	F	Fransga „Shoshma, ulgurasan o‘sha maktabingga“, - deya gapirgan temirchi.
6	River	H	O‘simlikning bir turi
7	Xauzer	G	O‘tloq nomi
8	Vaxter	I	Janob
9	Frans	J	Vaqtini behuda o‘tkazib, so‘nggi fransuz tili darsida pushaymon bo‘lib o‘tirgan bola

Topshiriq javobi: 1 – I; 2 – E; 3 – A; 4 – H; 5 – B; 6 – G; 7 – D; 8 – F; 9 – J.

Berilgan matnni tushunib o‘qishning o‘zi hali uning mazmun-mohiyatini to‘la o‘zlashtirishga asos bo‘la olmaydi. Buning uchun o‘quvchilarning matn mazmunini mustaqil suratda o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishlari ham talab etiladi. Kuzatishlar ko‘p hollarda matn ma’nosi to‘la bayon qilinmasligi, ba’zan uning bir qismi qayd etilsa, ba’zan chalkashtirib yuborilishi, hatto matn tagzaminidagi ma’no noto‘g‘ri izohlanishini ham ko‘rsatadi.

Buning sababini tushunib yetish uchun mohiyat xususidagi falsafiy kategoriyalarga murojaat qilib ko‘raylik. „Mohiyat, – deyiladi „Filosofiya lug‘ati“da, – muayyan narsaning mazmuni, uning boshqa hamma narsalardan farqli o‘laroq, o‘z-o‘zicha borligi ... Hodisa – aniq voqealar, xossalar yoki jarayonlardan iborat, bu jarayonlar voqelikning tashqi tomonlarini ifodalaydi va biron mohiyatning yuz berish, ochilish shaklini namoyon qilib ko‘rsatadi. Olamda hech qanday mohiyat yo‘qki, u sirtga namoyon bo‘lmasin va bilib olinmasin,

shuningdek, hech qanday hodisa yo‘qki, u mohiyat haqida hech qanday axborotni o‘z ichiga olmasin“⁵.

Demak, agar biz matnda ifodalangan ma‘noni matn uchun mohiyat deb belgilasak, matn uning „sirtga namoyon“ bo‘lish shaklidir. Mohiyatni bilishga shakl orqali boriladi. Matnni o‘rganishdan maqsad ma‘noni o‘zlashtirishdir. Darslik ustida ishlashning dastlabki bosqichi – asar muallifi, sarlavhasi, epigrafi bilan tanishgandan so‘ng matn haqidagi ilk taassurot mutolaa jarayonida shakllana boradi. Lekin matn bilan to‘la tanishish hali mohiyatni to‘la bilib olishni anglatmaydi. Mohiyat fikrlash orqali aniqlanadi.


Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun nashr etilgan „Adabiyot“ darslik-majmuasida ta‘kidlanganidek, Alfons Dodening “So‘nggi saboq” hikoyani tushunish uchun XIX asr Fransiya tarixini, ma‘lum bir muddat qaysi mamlakatga qaram bo‘lgani kabi ma‘lumotlarni ham bilish lozim. Hikoyada Fransiyaning Elzas va Lota ringiya hududi o‘z vaqtida nemislar tomonidanishg‘ol qilinganiga ishora bor. Undagi «... nemislarning safda yurish mashg‘ulotlari» degan jumla, shuningdek, muallimning o‘quvchilarga: «Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor dars o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi. Bugun fransuz tilidan oxirgi mashg‘ulotimiz. Iltimos, e‘tiborliroq bo‘linglar!» degan murojaati hamda «Maktab tomida kaptarlarning g‘uv-g‘uvlagani qulog‘imga chalindi. O‘ylanib qoldim: «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?» degan e‘tiroznomasi ham shundan dalolat beradi⁶.

Shuningdek, hikoyada sinf xonasi, undagi har bir predmet birma-bir aniq tasvirlanadi. Ushbu darsga har kungidan boshqacharoq kiyinib kelgan muallimning ust-boshini batafsil ta‘riflaydi. U bamisoli bay ramdagidek kiyingan. Bu, tabiiyki, adibning badiiy mahoratini ko‘rsatadi. Ammo fransuz xalqi bu yerda og‘ir musibatni boshidan kechirayotganiga, xuddi o‘z ona tillarini qabrga qo‘yayotgandek bo‘lganiga, ayni paytda sinf xonasida yoshi ancha katta kishilar

⁵ Filofofiya lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1976. – B. 324-325.

⁶ To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta‘lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 177.

ham o‘tirganlariga urg‘u beradi. Hikoyadagi «biz fransuzlar doim o‘qishni orqaga suramiz» degan gap ham har kimni o‘ylantiradi. Hozirgi zamonga xolis baho beradigan bo‘lsak, nafaqat fransuzlar, balki butun dunyo yoshlari ham ko‘pincha yalqovlik bilan o‘qishni, bilim olishni orqaga suradi. Bu hikoyada esa yoshlarni bilim olishga, ona tilini sof saqlashga chaqiriq sadolari yangraydi⁷.



Alfons Dodening „Songgi saboq“ hikoyasini o‘rgatish jarayonida jamoadan lider saylanadi. Guruhlarga bittadan qog‘oz tarqatiladi:

Birinchi guruhga: Fransning o‘rnida siz nima qilgan bo‘lardingiz?

Ikkinchi guruhga: mosye Amel eng so‘ngi darsni qanday holatda o‘tdi?

Uchinchi guruhga: Fransning so‘ngi darsdagi holatini tushintiring?

O‘quvchilar fikrlarini qog‘ozga yozadilar. Lider fikrlarni jamlab yakuniy xulosani yetkazadi. Albatta, bu metod asarning butun qismini tahlil qilish imkonini yaratadi. O‘quvchilarda fikrlash qobiliyati, yangi-yangi fikrlar bildirish imkoni yaratiladi.

„Veer“ (Xulosalash) metodi. Ushbu metoddan nazariy ma’lumotlar taqdimoti jarayonida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida, mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

⁷ To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova k. Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 177.

Metodni amalga oshirish uchun o‘quvchilar kichik guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallar tarqatiladi. Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib o‘z mulohazalarini tarqatma materialga yozma bayon qiladilar.

1. mosye Amelning so‘nggi darsdan oldingi harakterini yozing?
2. Adib nega musiqachi Xauzer obrazini kiritgan deb o‘ylaysiz?
3. Frans so‘nggi darsni eshitganda nega qo‘rqib ketgan edi?
4. „Songgi saboq“ hikoyasini o‘qish jarayonida o‘zbek adiblaridan kimlarni esladingiz?

Guruhlar o‘z taqdimotini taqdim etadilar. O‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborot bilan to‘ldiriladi.

Dars mashg‘ulotlari davomida „konseptual jadval“ metodidan foydalanish o‘quvchilarda taqqoslash orqali bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Yakka tartibda yoki mini-guruhlarda konseptual jadval quriladi va u to‘ldiriladi, vertikal bo‘yicha – taqqoslash talab etiladigan narsalar (asar g‘oyasi, qahramonlari va h.) joylashtiriladi, gorizonta bo‘yicha – taqqoslashni amalga oshirishdagi har xil tavsiflar joylashtiriladi.

Jumladan, jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodiga bag‘ishlangan dars mashg‘ulotlari so‘ngida o‘tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida quyidagi konseptual jadval ishlab chiqish mumkin:

Asarning nomi	Asar g‘oyasi	Asar qahramonlari	Asar boshlanmasi va tugallanmasi
---------------	--------------	-------------------	----------------------------------

„Hayotga muhabbat“ hikoyasi	Shu obraz orqali butun insoniyatning matonatini, sabr-bardoshini aks etirib bergan. Inson uchun bu hayotda boylikdan ko‘ra muhimroq narsa, yani triklik, halovatda yashash, zavqlanish kerak degan fikrni ilgari surishimiz mumkin.	Bill, oltin izlovchi odam, baliq, ayiq, bo‘ri, kaklik.	Ikki do‘st oltinlarni olib uyiga qaytayotgani, va bittasi oyog‘ini toshga urib yaralab olgani, Bill do‘stini shu holida tashlab ketgani * * * Oltin izlovchi odam eng so‘ngi nafasida ham sudralib yurib bo‘rini tishlab o‘ldirigani va kit ovlovchilar uni qutqarib olgani.
Asarning nomi	Asar g‘oyasi	Asar qahramonlari	Asar boshlanmasi va tugallanmasi
„Songgi saboq“ hikoyasi			

Bunda o‘quvchilarga Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ hikoyasi asosidagi ma’lumotlardan farqli ravishda Alfons Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasidagi asosiy g‘oya nimadan iborat ekanligi, ularda qatnashayotgan qahramonlar va ularning farqli jihatlarini topishlari talab etiladi. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini asosli dalillar bilan ifodalay olishga o‘rgatadi.

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish hamda ta’lim sohasida eng samarali usullarni tajriba-sinovlardan o‘tkazish va o‘quv


jarayoniga tadbqiq qilish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda o'quvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tegishli bilimlarni to'liq o'zlashtirishlariga erishishdir. Buning uchun o'qituvchining butun faoliyati o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, mustaqil hayotga tayyorlashga yo'naltiriladi. Xususan, tadqiqotlarimizda oldin ham ta'kidlanganidek⁸, Alfons Dodening hayoti va ijodini o'rgatishda ham bir qancha interfaol metodlardan, xususan, „Bahs-munozara“, „Aqliy hujum“, „Dumaloq qor uyumi“, „Qorbo'ron“, „Qalin va ingichga savollar“, „Mantiqiy chalkash zanjir“ kabi bir qator metod va usullarni qo'llashimiz mumkin. Masalan, „Mantiqiy chalkash zanjir“ metodi bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beruvchi ta'lim strategiyasi hisolanadi. Mazkur metod o'quvchilarni topqirlikka undashi bilan birgalikda ma'lumotlarni puxta o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchi keltirilgan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlaydi, bilim darajasi oshib boradi, dunyoqarashi kengayadi.

„Mantiqiy chalkash zanjir“ metodini amalda qo'llash sxemasi

1	O'qituvchi ta'lim oluvchilarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi.
2	Ta'lim oluvchilar bir nechta kichik guruhlariga birlashtiriladi.
3	Kichik guruhlariga chalkash ma'lumotlarni o'zida ifodalagan tarqatma materiallar beriladi.
4	Topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi (5 daqiqa) belgilanadi.
5	Kichik guruh tarqatma materialda ifodalangan matndagi mantiqiy xato va chalkashlarni aniqlab, uzilgan zanjirni „ulash“ga harakat qiladi.
6	Belgilangan vaqt yakunlangach har bir guruhdan bir nafar vakil jamoani topshiriq mazmuni va guruhning javoblari bilan tanishtiradi.
7	Jamoadagi guruhlarining javoblari yuzasidan muhokama tashkil etiladi.
8	O'qituvchi jamoaning fikriga tayanib guruhlar ishini baholaydi.

⁸ Bobojonova G. Umumta'lim maktablarida Sergey Yesenin hayoti va ijodini o'rgatish / Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2019. – B. 139-141.

Alfons Dodening „Songgi saboq“ asarini o‘quvchilarga o‘rgatishda bir qator pedagogik texnologiyalarni ham misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, o‘qituvchi „Hatolar ustida ishlash“ o‘yin texnologiyasi orqali o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatini shakllantirish, balki, shu bilan bir qatorda ularning teskorligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishimiz mumkin. Mazkur usul har bir o‘quvchiga asar g‘oyasini saqlagan holda, gap shaklida o‘nta misol, ya’ni matn beriladi va bu matndagi xatolarni topishi, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarni o‘ylantirish tezkorligini rivojlantirish maqsadida har bir xatoni foizini topishga qaratilgan.



1. O‘sha kuni ertalab maktabda juda ham kech qolayotgan edim. Muallimdan tanbeh eshitishimni o‘ylasam yuragim orqaga tortib ketardi . 2. Ustiga-ustak mos’e Amel bizdan avvalgi dars mavzusini —ravishdoshlarni so‘ramoqchi edi. Men esa yarimta so‘z ham yodlamaganman. 3. Birzum hayolimga darsga kirmasdan sayr qilib yurish fikri keldi. 4. O‘rmon chetida sayroqi qorayaloqlarning kuylayotgani, taxta yo‘nish zavodi ortidagi Meriya o‘tlog‘ida fransuzlarning safda yurish mashg‘ulotlarini bajarayotganliklari eshutilib turardi. 5....Shu payt shogirdi bilan e‘lonlarni o‘qib turgan temirchi Xauzer meni chaqirib qoldi: — Shoshma, bolakay, ulgurasan o‘sha maktabingga. 6. U ustimdan kulyapti deb o‘yladim va halloslagancha mos’e Amelning uyi oldidagi gulzor tomonga yugurdim. 7. Ochiq oynada o‘rtoqlarim allaqachon joy-joylarida o‘tirganini, mos’e Amel esa vahimali chizg‘ichini qo‘ltiqлагancha u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotganini ko‘rdim. 8. Vaxterning tizzasida chetlari titilgan eski alifbe, uning ustida esa katta ko‘zoynak turardi. 9. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat ingliz tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. 10. Uning bo‘g‘ziga nimadir

tiqilganday bo'ldi. Shunda u qo'liga bo'rni olib, katta xarflar bilan kuchining boricha quyidagi so'zlarni yozdi: “Yashasin, Fransiya!”

! Maskur matndagi xatolar ustida ishleng.

- Asardagi to'g'ri malumotlarni toping ?
- Asardagi noto'g'ri malumotlarni toping?
- Asardagi imloviy xatolarni toping?
- Asardagi qo'shimchalar bilan bog'liq xatolarni toping?

O'quvchilar berilgan parchadagi ma'lumotlarga tayangan hoda foizni chiqaradi. Har bir xato yoki tog'ri javobga 10 %.


Javoblar

1. O'sha kuni ertalab maktabga_juda ham kech qolayotgan edim. Muallimdan tanbeh eshitishimni o'ylasam yuragim orqaga tortib ketardi . 2. Ustiga-ustak mos'e Amel bizdan avvalgi dars mavzusini —sifatdoshlarni so'ramoqchi edi. Men esa yarimta so'z ham yodlamaganman. 3.Bir zum xayolimga darsga kirmasdan sayr qilib yurish fikri keldi. 4. O'rmon chetida sayroqi qorayaloqlarning kuylayotgani, taxta yo'nish zavodi ortidagi River_o'tlog'ida nemislarning safda yurish mashg'ulotlarini bajarayotganliklari eshutilib turardi. 5....Shu payt shogirdi bilan e'lonlarni o'qib turgan temirchi Vaxter meni chaqirib qoldi: — Shoshma, bolakay, ulgurasan o'sha maktabingga. 6. U ustimdan kulyapti deb o'yladim va halloslagancha mos'e Amelning uyi oldidagi gulzor tomonga yugurdim. 7. Ochiq oynadan_o'rtoqlarim allaqachon joy-joylarida o'tirganini, mos'e Amel esa vahimali chizg'ichini qo'ltiqlagancha u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotganini ko'rdim. 8.Xauzerning_tizzasida chetlari titilgan eski alifbe, uning ustida esa katta ko'zoynak turardi. 9. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat_ nemis tili o'qitilishi haqida buyruq keldi. 10. Uning bo'g'ziga nimadir tiqilganday bo'ldi. Shunda u qo'liga bo'rni olib, katta harflar bilan kuchining boricha quyidagi so'zlarni yozdi: „Yashasin, Fransiya!“

Bu usulimiz orqali o'quvchilar asarni qay darajada tushuna oldi, ular bu asarni eslab qola olganligini bilib olishimiz mumkin. O'quvchilarning bilimini har taraflama, boshqa fanlar bilan bog'lagan holda ham tekshirish imkoniga ega

bo‘lamiz. Bu usulni individual hamda guruh bo‘lib ishlashsa ham bo‘ladi. Ta’lim oluvchilardan chaqqonlik, ziraklik, tezkorlikni talab qiladi. Maktabda tajriba tariqasida bu usulni qo‘llab ko‘rdik. O‘quvchilarga biroz mushkul bo‘ldi, ammo ular matnni har taraflama tahlil qilish tomonlariga qiziqib matn ustida ishladi. 70%, 80% natija kutgandek bo‘ldi.

„Raqamlar tilga kirganda“



Umuman, o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun chop etilgan darslik-majmuada mavjud jahon adabiyoti namoyandalari ijodini faqatgina an’anaviy ta’lim shakllariga tayanibgina qolmasdan, turfa pedagogik usullardan hamda texnik vositalardan foydalanib o‘rgatish o‘qituvchining dars mashg‘ulotidan kutgan maqsadiga erishishiga bevosita xizmat qiladi.

1.2. 10-sinfda jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o'rgatishda savol-topshiriqlardan foydalanish

Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol-topshiriqlar bilimlarni aniqlash, umumlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga, bayon etilgan fikr-tushunchalarni baholashga, shu tariqa o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bilimlar mohiyatini savollar yordamida aniqlash va o'zlashtirish g'oyasi Aflotun, Suqrot, Arastu asarlaridan boshlab uchrashi va hozirgacha keng qo'llanishi uning ta'lim jarayonidagi o'ziga xos nufuzini belgilaydi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida savollar tuzib, ularga javoblar topishni bilimlar mohiyatini o'zlashtirishning muhim sharti degan xulosaga keldik. Hozirgi ta'lim tizimida o'quvchi bilimni baholashda keng istifoda qilinayotgan matnni qayta hikoya qilish, o'qituvchi tomonidan beriladigan savollarga javob qaytarish usuli matnda qo'yilgan masalalarga o'quvchining o'zi ijodiy savol tuzib javob berishiga qaraganda kam samaralidir. Chunki bola tabiatining o'zi, hayotni o'rganishga bo'lgan qiziqishi, ilm olishga ishtiyoqi shuni taqozo etadi.

Shunday ekan, jahon adabiyoti namoyandalari ijodini o'rgatishga bag'ishlangan mavzular doirasidagi savol-topshiriqlarning tub mohiyati nimadan iborat, ular oldiga qanday talablar qo'yiladi, degan masalani hal qilish zarurati tug'iladi.

Albatta, o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatishda savol va topshiriqlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. U o'qituvchi tomonidan uyushtiriladigan, nazorat qilinadigan va baholanadigan o'quvchining o'z bilimni oshirish ustidagi faoliyatidir. O'quvchining uyga berilgan o'quv topshiriqlari ustidagi faoliyati dars jarayonidagi faoliyatidan shunisi bilan farqlanadiki, u topshiriqni bajarishda o'qituvchi maslahati, sinf jamoasining yordamiga emas, o'z bilimi va tajribasiga tayanadi. Tashqi ta'sirning bo'lmasligi, mustaqil ishni o'zi bajarishi o'quvchi imkoniyatlariga keng yo'l ochadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 10-sinf oʻquvchilari uchun chop etilgan „Adabiyot“ darslik-majmuasining ikkinchi qismida⁹ biz soʻz yuritayotgan Jek London va Alfons Dode hayoti va ijodini oʻrgatishga bagʻishlangan mavzularda jami 17 ta savol va topshiriqlar berilgan boʻlib, shundan 10 tasi Jek London, 7 tasi Alfons Dode hayoti va ijodiga bagʻishlangan. Albatta, bu miqdor mavzu mohiyatini ochib berishda, oʻquvchining savolarga mustaqil javob berishi va badiiy tafakkurini boyitishiga, bizningcha, kamlik qiladi. Bu boʻshliq oʻqituvchining faolligi hamda dars jarayoniga taʼlim oluvchilarni koʻproq jalb qilishi yordamidagina toʻldiriladi. „Oʻquvchilarning bilish faolligini oʻstirishda oʻquv-biluv topshiriqlari va ularni qoʻllash“ mavzusida tadqiqot olib borgan gurji metodisti Leonid Folich Chikvanana adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlarni maqsadga koʻra: a) bilim olishga qaratilgan oʻquv topshiriqlari; b) mashq qilishga qaratilgan oʻquv topshiriqlari tarzida 2 guruhga ajratsa, rus metodisti Olga Xrenova „Adabiyotni oʻrganish jarayonida uy vazifalari oʻquvchilarning mustaqilligini oʻstirish vositasi sifatida“ mavzusidagi ilmiy ishida savol-topshiriqlarni quyidagicha 4 guruhga boʻlib koʻrsatadi: 1) namuna asosidagi savol-topshiriqlar; 2) tarbiyaviy xarakterdagi savol-topshiriqlar; 3) evristik talablar qoʻyilgan savol-topshiriqlar; 4) ijodiy xarakterdagi savol-topshiriqlar.

Bu yerda muhimi tashqi taʼsirning boʻlish-boʻlmasligi emas, balki oʻquvchining oʻz ustida ishlay bilish, ijodiy fikrlash malakasining shakllanishidir.

Savol-topshiriqlarning taʼlimiy-tarbiyaviy mohiyati xususida garchi yoʻl-yoʻlakay boʻlsa-da, oʻzbek metodistlari olib borgan ishlar ham qiziqarlidir. Masalan, professor A.Gʻulomov 1976-yilda yozgan „Uy topshirigʻi – mustaqil ishning asosiy formasi“¹⁰ nomli maqolasida savol-topshiriqlarning ona tili taʼlimidagi oʻrni va roli toʻgʻrisida eʼtiborli kuzatishlarini bayon qilsa, Q.Ahmedov va A.Tojiyevlar savollarni: a) taxminiy savollar; b) analitik savollar; v) sintetik savollar tarzida tasniflaydilar¹¹.

⁹ Adabiyot. Oʻrta taʼlim muassasalarining 10-sinfi taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent, „Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi“, davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

¹⁰ Maktabda oʻzbek tili va adabiyoti oʻqitish metodikasi masalalari. Toshkent, TDPI toʻplami, 1976.

¹¹ Dolimov S. va boshqalar. Adabiyot oʻqitish metodikasi. „Oʻqituvchi“, Toshkent, 1967, 254- bet; Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. „Oʻqituvchi“, Toshkent, 1977, 17- bet.

Adabiyotshunos olim Safo Matjon 1996-yilda nashr etilgan „Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar“ nomli umumta’lim maktablarining adabiyot o’qituvchilari uchun mo’ljallangan uslubiy qo’llanmasida esa „Adabiyot“ darslik-majmualaridagi savol-topshiriqlarni mazmun-mohiyatiga ko’ra quyidagicha 4 guruhga bo’lib o’rganadi:

1. Asarlarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini o’rganish va umumiy mazmunini o’zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

2. O’zlashtirilgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga doir savol-topshiriqlar.

3. Yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan berilgan ma’lumotlarni o’zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

4. Asar voqealari misolida o’quvchilarning hayotga munosabatini aniqlashga doir savol-topshiriqlar¹².

Biz ham ushbu tasnifni ma’qullagan holda 10- sinf adabiyot darsligidagi savol va topshiriqlarni yuqoridagi bo’linish asosida o’rganib chiqdik. Bunga ko’ra tadqiqot obyektimizdagi mavzular asosida berilgan 17 ta savol va topshiriqning 8 tasi (47%) asarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini o’rganish va umumiy mazmunini o’zlashtirishga, 2 tasi (11,7%) o’zlashtirilgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga, 2 tasi (11,7%) yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan berilgan ma’lumotlarni o’zlashtirishga, 5 tasi (29,4%) asar voqealari misolida o’quvchilarning hayotga munosabatini aniqlashga bag’ishlangan.

Natijalar ko’rsatilgan mezonlar bo’yicha muvozanatning saqlanmaganligini namoyon etadi. Ammo bu umumiy xulosalar xolos. Har bir mavzu bo’yicha alohida qaralganida esa, qaysidir mezonlar doirasida ko’rsatkichlarning ancha past ekanligi bilinadi. Masalan, ijodkorlar hayoti va ijodini o’rgatishga bag’ishlangan savol-topshiriqlarda yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati hamda o’zlashtirilgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga yo’naltirilganlari sanoqli.

¹² Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. Toshkent, „O’qituvchi“, 1996.

Har qanday savol-topshiriq dastur bo'yicha o'zlashtirish rejalashtirilgan adabiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qilsagina o'zini oqlaydi. U yoki bu voqea-hodisa tufayli qahramon ichki dunyosida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash, qahramonning o'sha voqea yuz bergunga qadar va yuz bergandan keyingi holatini, fe'l-atvoridagi o'zgarishlarni qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish, she'riy nutq, she'r tuzilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, lirik qahramonning surati va siyratidagi uyg'unlik, dramatik asarlarning ichki tabiati, sujetining keskin ziddiyatlar asosiga qurilishi bilan bog'liq savol-topshiriqlar o'smirlar ruhiyatiga hamohang bo'lib, o'quvchilarni so'z san'ati ichiga chuqurroq olib kirishga xizmat qiladi.

Bu xildagi savol-topshiriqlar bo'yicha o'tkazilgan tahlil jarayonida badiiy matn o'quvchilar tomonidan qayta o'rganib chiqiladi. Ular asar sujeti voqealarini, qahramonlarning xatti-harakatlarini shunchaki qayd qilishdan o'sha voqealar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni chuqur tushunishga, qahramonlar xatti-harakatini baholashga o'tadilar. Shu tariqa asar g'oyaviy mazmunini o'zlashtirishga erishadilar.

Dastur bo'yicha o'rganish ko'zda tutilgan adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirgan 10-sinf o'quvchilariga tavsiya qilinadigan talablar asosidagi savol-topshiriqlar masalaning muammoli tarzda qo'yilishi bilan xarakterlanadi va javoblarning turlicha bo'lishi nazarda tutiladi.

Bunday savol-topshiriqlarga javob berishda o'quvchi o'z fikrini misollar bilan dadillashga majbur bo'ladi. Muammoli savollar bo'yicha ishlash o'quvchini turli xildagi javoblar ustida o'ylab ko'rishga yo'naltiradi, fikr-mulohazalarni umumlashtirish va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Savol-topshiriqlarning tagzaminida o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati turadi. Shuning uchun ham tajribali o'qituvchilar darsliklardagi savol-topshiriqlar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarning bilimi va qiziqishiga yarasha savollar tuzadi, topshiriqlar beradi.

Maktablarda o'tkazilgan tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilar dars jarayonida bevosita o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida ayrim

asarlari misolida adabiyotning ijtimoiy ongning muhim shakli, san'atning bir turi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari hamda dastur talablari doirasidagi adabiy-nazariy tushunchalarni faol o'zlashtirish yo'lidan borsalar-da, amalda ularni boshqa asarlarga qo'llash ko'nikma va malakalari shakllanmaydi. Chunki har bir asarga murojaat qilinganda uning o'zigagina xos jihatlarni o'rganish ko'zda tutiladi-yu, oldin o'zlashtirilgan tushunchalar bilan qiyoslash, umumlashtirish va boyitishga e'tibor berilmaydi. Bunday holda o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati samarasiz bo'ladi.

Adabiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishga doir izchillikning buzilishi, o'quvchilar ijodiy tajribasining yetishmasligi tufayli badiiy matn ustida o'tkaziladigan mustaqil ishlar natijasi ko'p hollarda talabga javob bermaydi.

Biz masalaga oydinlik kiritish maqsadida pedagogik amaliyot davrimizda Nukus shahridagi 38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 10 - „D“ sinf o'quvchilari bilan (21 o'quvchi) Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ hikoyasi o'qib, o'rganilgach, asardagi bosh qahramon obrazini tavsiflashga oid tajriba o'tkazdik. O'quvchilar „Ziyraklar“, „Topqirlar“ va „Donolar“ guruhlariga bo'linishdi.

„Ziyraklar“ guruhiga „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni – sabrli, matonatli inson sifatida“ mavzusida sharh yozish vazifasi topshirildi.

„Topqirlar“ guruhiga shu mavzudagi sharhni qat'iy reja asosida yozish buyurildi.

Ulardan farqli o'laroq, „Donolar“ guruhiga mazkur mavzu bo'yicha sharh yozishda quyidagi masalalarni e'tiborga olish zarurligi uqtirildi:

- qahramonga sharh yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
- Odamning sabri, matonati nimada ko'rinadi?
- Asarda oltin insonning omon qolishi uchun yordam bera oldimi?
- Qahramonning qaysi jihatlarni siz mardlik deb baholagan bo'ladingiz?
- Hikoya nima uchun „Hayotga muhabbat“ deb nomlangan? Bu mavzuga hikoya qahramonining qanday aloqasi bor, deb o'ylaysiz?

Tajriba natijasi quyidagicha bo'ldi:

№	Mavzuning yoritilish darajasi	Guruhlar bo'yicha mustaqil ishni bajargan o'quvchilar soni			
		„Ziyraklar“ guruhi	„Topqirlar“ guruhi	„Donolar“ guruhi	Jami
1	To'la yoritilgan	4	5	4	13
2	Qisman yoritilgan	2	2	1	5
3	Yoritilmagan	2	1	0	3
Jami		8	8	5	21

Ko'rinadi, o'quvchiga to'g'ri yo'nalish berilgan taqdirdagina pedagog mashg'ulotdan kutilgan natijaga erishishi mumkin. Bu xildagi savol-toshiriqlar u yoki bu asarni o'rganish metodining mazmunini tashkil etishi ham mumkin. O'quvchi savol-topshiriq ustida bosh qotirar ekan, eng to'g'ri javobni topishga harakat qiladi. O'quvchi javobining to'g'ri bo'lishi ko'p hollarda beriladigan savol-topshiriqning tushunarli, qiziqarliligidan tashqari, ijodiy yondashuvni talab qilishiga ham bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, savol-topshiriqlar qanday maqsadga qaratilishidan qat'iy nazar, ular o'zlashtirishi ko'zda tutilgan badiiy asarlar va ilmiy-uslubiy maqolalarning murakkab jihatlarini tushuntirishga yo'naltiruvchi, qulay vositasi sanaladi. Metodist X.Ubaydullayev to'g'ri qayd etganidek, „...savollar maqsadni aniqlashga qaratilishi va ma'lum tizimga ega bo'lishi zarur. Savollar aniq va ixcham bo'lishi lozim. Tuziladigan savollarda ta'lim-tarbiya tamoyillari ko'zda tutilishi kerak. Basharti tuzilgan savollar tizimi shu muhim talablarga javob bermaydigan bo'lsa, darsdan kuzatiladigan maqsadga erishib bo'lmaydi“¹³. Bunga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, savollarga taqozo etadigan javob, albatta, xoh badiiy asarlar, xoh ilmiy-metodik maqolalar matnida bo'lsin, aks etishi shart.

Metodist A.Tojiyevning fikricha, har bir savol tushunarli, muayyan va aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi zarur. „... savollarning ko'p bo'lishi, – deb yozadi u – vaqtdan unumli foydalanishga imkon bermaydi. Natijada dars rejasida ko'rsatilgan

¹³ Dolimov S. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, „O'qituvchi“, 1967, 183-bet

ayrim muhim masalalar hal qilinmay qoladi, kutilgan maqsadga to'la erishilmaydi"¹⁴.

Jahon adabiyoti namoyandalari ijodiga bag'ishlangan dars oxirida mavzuni mustahkamlash maqsadida savol-javob metodidan ham foydalanish mumkin. Bu usul o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini yanada mustahkamlash hamda ularning xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga ijobiy yordam beradi.

Malakaviy ishimizda umumta'lim maktablari o'qituvchilari, tadqiqotchilar, o'quvchilar hamda adabiy asarlarni qiziqib mutolaa qiluvchi kitobxonlar uchun Jek London va Alfons Dode hayoti va ijodi bo'yicha darslarda foydalanish mumkin bo'lgan savol-javoblarni keltirmoqdamiz. Mazkur savollar va javoblar o'qituvchilarga nazorat ishlarini tashkil qilishda ham amaliy yordam beradi:

Nukus shahridagi 38- sonli maktabning 10- „D“ sinfida Jek London hayoti va ijodi bo'yicha tajriba qilib ko'rdik. Tajriba davomida savollarni uch toifaga: oson, o'rta va murakkab darajalarga bo'lib berdik. Buni quyidagicha tasnifladik:

Oson darajadagi savollar:

1. Jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Jek London qayerda tug'ilgan edi? Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida.

2. Jek London qanday oilada dunyoga keladi? Fermer oilasida.

3. Jek London qaysi universitetida tahsil oladi, biroq oradan biroz vaqt o'tib o'qishni tashlashga majbur bo'ladi? Kaliforniya universiteti.

4. Jek Londonning adabiy faoliyati qachon boshlangan? 1893- yilda.

5. Butun ijodiy faoliyati davomida Jek London qancha roman yaratadi? Yigirmaga yaqin.

6. Butun ijodiy faoliyati davomida Jek London qancha hikoya yozadi? Bir yuz ellikdan ortiq.

7. Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ asari qaysi janrda yaratilgan? Hikoya.

8. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramonining sherigining ismi kim edi? Bill.

¹⁴ Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. – Toshkent, „O'qituvchi“, 1977, 15- bet.

9. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramonining paypoqlari nimadan tikilgan edi? Odeyaldan.

10. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni qutqarilgach, oradan qancha vaqt o‘tib, „Bedford“ kemasida karavotda yotgan holda ko‘z yoshlarini oqizib, o‘zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib beradi? Uch hafta.

11. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida kim oyog‘i cho‘loqlanib qolgan sherigini tashlab ketadi? Bill.

12. Jek London „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramonini kim deb nomlaydi? Odam.

O‘rta darajadagi savollar:

1. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy Qutb doirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ygan janub tomonda – ko‘rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir, qaysi ko‘l bor edi? Katta Ayiq ko‘li.

2. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida Bill tashlab ketgan soy qaysi daryoning irmog‘i edi? Kappermayn.

3. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni Kappermayn daryosining Shimoliy Muz dengiziga quyilishi haqida qaysi ko‘rfaz kompaniyasining xaritasida ko‘rgan edi? Gudzon ko‘rfazi kompaniyasi xaritasida.

4. Titchinichili ko‘lining nomi mahalliy tilda qanday ma‘noni anglatadi? „Kichik og‘ochlar o‘lkasi“ ma‘nosini.

5. Bill do‘stini qayerda kutib turishi kerak edi? Diz daryosi bo‘yida.

6. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni yanglishgan bo‘lmay deb, uch marta sanab ko‘rganida ham hammasi bo‘lib nechta gugurt cho‘pi bor edi? oltmish yetti dona.

7. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni oltmish yetti dona gugurt cho‘pini uch bo‘lakka ajratib, ularni qayerga yashiradi? Bir bo‘lagini bo‘sh hamyoniga, ikkinchisini ohori to‘kilgan shapkasining astariga, uchinchisini esa ko‘kragiga.

8. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida qaysi daryo bo'yida yashirib qo'yilgan narsalar orasida patronlar ham borligi tasvirlanadi? Diz daryosi bo'yida.

9. Qadimdan qo'llab kelingan, turli davlatlarda har xil qiymatlarga ega bo'lgan uzunlik o'lchovi? Mil.

10. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni bir safar nimaning uyasi ustiga yiqilib tushadi? Kaklik uyasi ustiga.

11. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni nimani shosha-pisha tiriklayin og'ziga soladi va suyaklarning tishlari orasida xuddi tuxum po'stlog'i singari qasirlashini eshitadi? Kaklik bolalarining.

12. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida kim oltinlarni so'nggi daqiqalargacha tashlamagan edi? Bill.

13. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida kit ovlovchi qaysi kema ilmiy ekspeditsiya a'zolari kema palubasida turib, qum ustida zo'rg'a o'rmalab dengiz tomonga kelayotgan g'alati bir maxluqni ko'rib qolishadi? „Bedford“ kemasidagilar.

Murakkab darajadagi savollar:

1. Jek Londonning qaysi asarlarida, asosan, mamlakatning shimoliy o'lkalari to'g'risida hikoya qilinadi? „Bo'ri bolasi“, „Izg'irin bolalari“.

2. Jek Londonning qaysi asarlarida sarguzasht motivi yetakchilik qiladi? „Qor qizi“, „Hayot uchquni“, „Insonga ishonch“.

3. Yozuvchi Jek Londonning qaysi romanlari dunyo adabiyotining nodir namunalari sanaladi? „Dengiz bo'risi“, „Martin Iden“ va „Uch qalb“.

4. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida tasvirlanishicha Diz daryosi bo'yida to'ntarib, ustiga tosh bostirib qo'yilgan qayiq ostida nimalar bor edi? Miltiq o'qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to'r, umuman, ovqat topish uchun zarur bo'lgan narsalarning hammasi, oz bo'lsa ham un, bir parcha go'sht, loviya.

5. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni dong qotib uxlab, uyqusidan uyg'onganida qulog'iga qattiq pishqirgan tovush eshitiladi, qarasa, unga ellik qadamcha narida hushyorlik va qiziqish bilan nima qarab turar edi? Bir bug'u.

6. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida nima qattiq qichqiriqdan cho‘chib ketsa ham og‘zidagi kaklikni tushirmagan edi? tulki

7. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida nimaning yumshoq bo‘lib, chaynaganda qars-qars ovoz chiqarishi, lekin mazasi taxir, xuddi chalchiqzor mevasiga o‘xshagan sersuv bo‘lib, och qorinni to‘yg‘izmasligi bayon etiladi? Qamish tomiri.

8. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramonini nima „aqlan ozdiradi“? Ochlik.

9. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni ko‘zi oldida bir ajib manzara sifatida namoyon bo‘lgan ot aslida nima edi? targ‘il ayiq.

10. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoniga uzoqda yaltirab dengiz va kema ko‘ringach, uning shimoli-sharqqa qarab yurgani va Diz daryosidan uzoqlashib, qaysi daryo vodiysiga kelib qolgani ayon bo‘ladi? Kappirmayn daryosi vodiysiga.

11. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni Kappirmayn daryosi vodiysiga ga kelib qolgach, qaysi dengiz yaltirab ko‘rinadi? Shimoliy Muz dengizi.

12. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni o‘rmalab o‘tgan boshqa odamning izidan borib, ko‘p o‘tmay o‘zidan oldingi odamning manziliga yetib kelgach, chimliq ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo‘rining izi bilan birga xuddi o‘zinikiga o‘xshash, o‘tkir tishlar tortqilab yirtgan qanday xaltani ko‘rib qoladi? Bug‘u terisidan tikilgan xaltani.

13. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramoni „Bedford“ kemasida karavotda yotgan holda ko‘z yoshlarini oqizib, o‘zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib berish bilan birgalikda yana nimalar haqida poyma-poy gapirib beradi? Onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko‘milgan uyi haqida.

14. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi olimlar qahramonimizga bildirmay uning karavotini tekshirganlarida uning osti, to‘shakning ichi, har bir burchak suxari bilan to‘la ekanini ko‘rgach ham, bu kasallikning tez o‘tib ketishiga shubha qilmaydilar. Haqiqatan ham, „Bedford“ kemasi qayerga langar tashlamasidanoq bu kasal o‘tib ketadi? San-Fransisko gavaniga.

15. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi qahramonidagi nima o‘lim ustidan g‘alaba qozonishiga sabab bo‘ladi? Uning hayotga bo‘lgan muhabbati.

16. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida yozuvchi tiriklik qadriga urg‘u berish uchun „o‘lim changaliga tushib qolgan“ qahramonining hayotga muhabbatini oshirish uchun vosita vazifasini bajargan qanday to‘siqlarga ro‘baro‘ qiladi? Kimsasiz sahro, suv, ko‘lmak, ayiq, bo‘ri.

**A.Dode hayoti va ijodi hamda „So‘nggi saboq“ hikoyasi bo‘yicha
Oson darajadagi savollar:**

1. O‘zining roman va hikoyalari bilan fransuz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan mashhur adib Alfons Dode qayerda tug‘ilgan edi? Fransiyaning Nim shahrida.

2. Alfons Dode necha yoshida Ernest ismli akasi bilan Parijga ko‘chib boradi? O‘n yetti yoshida.

3. Alfons Dodening hikoyalari jamlangan va 1869-yilda e‘lon qilingan birinchi kitobi qanday nomlanadi? „Tegirmonimdan xatlar“.

4. Alfons Dode qanday roman kitoblarlar yozgan edi? „Kichkintoy“, „Tarasonlik Tartaranning sarguzashtlari“, „Kichik Fromon va katta Risler“, „Roza va Ninetta“.

5. A.Dodening qaysi davrda yozgan asarlarida psixologik tahlil yetakchilik qiladi? XIX asrning 80-yillarida.

6. Alfons Dodening nechta farzandi bor edi? Uchta.

7. A.Dode 1897- yil 17- dekabrda qayerda vafot etadi? Parijda.

8. A.Dodening „So‘nggi saboq“ asari qaysi janrda yozilgan? Hikoya.

9. A.Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasi qachon „Yoshlik“ jurnalida nashr qilinadi? 2015- yil 9- sonida.

10. A.Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasida fransuz tili o‘qituvchisi kim edi? Amel.

11. „So‘nggi saboq“ hikoyasi qahramoni Frans qaysi mavzuni o‘qimaganligini uchun darsga kirmagan edi? Sifatdoshlar.

12. „So‘nggi saboq“ hikoyasida tasvirlanishicha Berlindan qayerdagi maktablarga faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keladi? Elzas va Lotaringiya.

13. „So‘nggi saboq“ hikoyasida Frans darsga kirish o‘rniga qaysi ko‘l ustida sirpanchiq uchib vaqt yo‘qotgan edi? Saara ko‘li.

14. „So‘nggi saboq“ hikoyasida tasvirlanishicha fransuz tili muallimi mosye Amel qancha vaqt umrini bag‘ishlab, maktabda ustozlik qilgan edi? 40 yil.

15. „So‘nggi saboq“ hikoyasi kimning tilidan bayon qilinadi? Yosh bola Frans.

16. „So‘nggi saboq“ hikoyasida Fransiyaning qaysi hududlari o‘z vaqtida nemislar tomonidan ishg‘ol qilinganiga ishora bor? Elzas va Lotaringiya.

O‘rta darajadagi savollar:

1. Alfons Dodening akasi bilan Parijga borishidan maqsad nima edi? Jurnalistika bilan mashg‘ul bo‘lish.

2. Alfons Dode necha yoshga yetmasidanoq bir qancha jurnallar bilan muxbir hamda teatr tanqidchisi sifatida hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi? Yigirma yoshiga yetmasdanoq.

3. Alfons Dodening yoshlikdagi mashaqqatli yillari to‘g‘risida avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan va 1869-yilda yozilgan romani? „Kichkintoy“ romani.

4. A. Dode qaysi kitoblari bilan fransuz adabiy muhitida shuhrat topadi? „Tegirmonimdan xatlar“ va „Kichkintoy“ kitoblari bilan.

5. A.Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasi o‘zbek tilida qaysi jurnalda e‘lon qilingan edi? „Yoshlik“ jurnalida.

6. A.Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasi o‘zbek tilida rus tilidan kimning tarjimasida e‘lon qilinadi? Saidjalol Saidmurodov tarjimasida.

7. „So‘nggi saboq“ hikoyasida nemislarning qaysi o‘tloqda safda yurish mashg‘ulotlarini bajarayotganliklarining eshitilib turishi tasviri mavjud? River o‘tlog‘ida.

8. „So‘nggi saboq“ hikoyasida qaysi qahramon Fransga shunday degan edi? „Shoshma, bolakay, ulgurasan o‘sha maktabingga“. temirchi Vaxter.

9. „So‘nggi saboq“ hikoyasida tasvirlanishicha oxirgi fransuz tili darsida qo‘lida uchburchak musiqa asbobi bilan ko‘pincha bo‘sh turadigan orqa o‘rindiqda o‘tirgan qahramon kim edi? qariya Xauzer.

10. „So‘nggi saboq“ hikoyasida mosye Amel mustamlaka xalqning nima yordamidagina yorug‘likka chiqa olishini uqtiradi? Ona tili yordamidagina.

11. „So‘nggi saboq“ hikoyasida tasvirlanishicha oxirgi fransuz tili darsida Mosye Amel namuna sifatida doskaga chiroyli husnixat bilan qaysi so‘zlarni yozib qo‘yadi? „Fransiya, Elzas. Fransiya, Elzas“.

12. „So‘nggi saboq“ hikoyasida qaysi qahramon vaqtini behuda o‘tkazib, so‘nggi fransuz tili darsida o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lib o‘tiradi? Frans.

Murakkab darajadagi savollar

1. Alfons Dode o‘z davrining qaysi buyuk adiblari bilan yaqin munosabatda bo‘ladi? Gyustav Flober, Emil Zolya, Ivan Turgenevlar bilan.

2. Alfons Dodening qaysi kitobiga jamlangan hikoyalari oddiy insonlar hayoti tabiat bilan uyg‘unlikda, shuningdek, ularning halol mehnat bilan turmush kechirishlari xalq og‘zaki ijodidagi hikoyat va ertaklarga o‘xshash uslubda tasvirlanadi? „Tegirmonimdan xatlar“.

3. Adabiyotshunoslar Alfons Dode ijodidagi qaysi ikki qirraga alohida urg‘u berishadi? Birinchisi – yumor, kinoya hamda tasvirdagi aniqlik; ikkinchisi – kuzatishlaridagi teranlik hamda adibning voqelikni naturalistik uslubda tasvirlaydigan yozuvchilarga usluban yaqinlashgani.

Umuman olganda, umumta’lim maktablarida, xususan 10- sinfda jahon adabiyoti namoyandalari ijodini o‘rgatishda o‘quvchining fikrlash qobiliyati va yosh xususiyatlarini inobatga holda uni o‘ylashga, yangi tushunchalarni anglashga undaydigan ta’limiy, tarbiyaviy mazmundagi savol va topshiriqlardan foydalanish dars samaradorligini ta’minlashi bilan birga, ertangi kunimizning ma’nan barkamol avlodlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI HAYOTI VA IJODINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGATISH USULLARI

2.1. 10- sinfda jahon adabiyoti namoyandalari ijodini o'rgatishga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarini noan'anaviy usullarda tashkil etish texnologiyalari

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda

ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.


10-sinfda jahon adabiyoti namoyandalarini o'rgatish o'qituvchiga u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu, birinchidan, darslikka kiritilgan ijodkorlarning Sharq adabiyotiga, xalqlarimiz dunyoqarashi va mentalitetiga bevosita (sabr qilish, matonatli bo'lishning kutilgan natijaga olib kelishi, tarixda ona tilining tashqi ta'sirlar ostida qolishi masalalari) yoki bilvosita (adiblar boshqa qit'a va makonga xosligi) yaqinligida ko'rinsa, ikkinchidan, tanlangan asarlarning shu yosh toifasiga va ularning qiziqishlariga to'la mos tanlanganidir.

An'anaviy ta'limda o'quvchi uyga vazifani qanday bajargani, o'rganilgan mavzuni gapirib berishi, savollarga javob berishi kabilar asosida baholanar, aksariyat hollarda bu og'zaki shaklda bo'lib, bilim, malaka va ko'nikmalarning baholanishida norozilik paydo bo'lardi. So'nggi davr ta'lim tizimida esa dars mashg'ulotlarida ba'zan o'quvchilar yakka (an'anaviy tarzda), ko'pincha darslar kichik guruhlarda ish olib borilishi sababli kichik guruh a'zolari baravar baholanmoqda. Bularning ham o'z afzalliklari bor, albatta. Ammo guruh ishida hamma vaqt ham barcha birdek mehnat qilmaydi-yu, baho bir xil bo'ladi. Shuning uchun bilimlarni nazorat qilish va baholashning yangi usullaridan unumli foydalanish zarur.

Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi. Jek London hayoti va ijodini o'rgatishga bag'ishlangan noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bu orqali o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tailadi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar fikrini o'stirish, rivojlantirish maqsadida zamonaviy usullardan foydalanib darsni tashkil qilish o'qituvchi mahoratini belgilaydi. O'qituvchi qancha ko'p bilimga ega bo'lsa, yangi usullarni qo'llay olsa, jarayon ham jonlanadi. O'quvchilarni faollikka chorlaydi. Zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchida mavzuga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Jahon adabiyoti namoyandasi Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ asarini o'quvchi tez va oson o'rganishi yoki asar haqida tushuncha hosil qilishi uchun „Nima uchun“, „Chala xat“, „Blits“ (tezkor savol-javob) usullaridan ham samarali foydalanish mumkin. Albatta, bu usullar individual tartibda olib boriladi. O'quvchilarga o'zining ustida ishlash, fikrlarini erkin tartibda bayon qilish imkonini yaratadi.

„Nima uchun“ usuli. Bunda har bir o'quvchiga qog'oz tarqatiladi. Qog'oz markaziga aylana shakli chiziladi va aylana ichiga o'quvchidan „Hayotga muhabbat“ hikoyasi haqidagi fikri so'raladi. Tagiga „nima uchun?“ savoli yoziladi. Aylanadan strelkalar chiqariladi hamda o'quvchining fikrlarini bayon etish so'raladi.



„Chala xat“ usuli. Mazkur o‘rgatish usuli o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga, aqliy tafakkurini boyitishga xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu usulni Jek London hayoti va ijodini mustahkamlashga bag‘ishlangan dars mashg‘ulotida foydalanish kutilgan samarani beradi. Dastavval asardan o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan biror parcha belgilanadi va sinf bilan qayta birgalikda mutolaa qilinadi. Shundan so‘ng o‘quvchilar ko‘p nuqta bilan ko‘rsatilgan hamda tushirib qoldirilgan so‘zlarni topib, tarqatma materiallarni to‘ldiradilar:

„U yerga o‘tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqida o‘ylab ketdi. Oyoqlarini o‘rab bog‘lagan parchalari titilib ketganidan oyoqlari shilinib qip-qizil go‘sht bo‘lib qolgandi. Eng so‘nggini ham ishlatib bo‘lgan. bilan yo‘qolgan.i ham tushib qolibdi, qalpoq bilan birga astariga yashirilgan ham yoqolgandi, lekin qog‘ozga o‘rab, hamyoniga yashirib qo‘ygan hali ham turibdi. Uiga qaradi, yurib turar vani ko‘rsatardi“.

Guruhlar o‘z javoblarini taqdim etganlaridan so‘ng matnning asl varanti o‘qib beriladi. Javoblarni tekshirishda o‘quvchilar tomonidan yozilgan so‘zlarning imlo jihatlariga ham e‘tibor berish hamda tegishli tavsiyalarni berib ketish mumkin:


*„U yerga o‘tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqida o‘ylab ketdi. Oyoqlarini o‘rab bog‘lagan **odeyal** parchalari titilib ketganidan oyoqlari shilini qip-qizil go‘sh t bo‘lib qolgandi. Eng so‘nggi **odeyal**ni ham ishlatib bo‘lgan. **Miltiq** bilan **pichoq** yo‘qolgan. **Qalpog‘i** ham tushib qolibdi, qalpoq bilan birga astariga yashirilgan **gugurt** ham yoqolgandi, lekin qog‘ozga o‘rab, hamyoniga yashirib qo‘ygan **gugurt** hali ham turibdi. U **soatiga** qaradi, **soat** yurib turar va **o‘n birni** ko‘rsatardi“.*

Jek London hayoti va ijodini o‘rgatishga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarda „Korporativ learning“ („birlashmoq“, „birga ishlamoq“) hamkorlikda ishlash metodidan ham samarali foydalanish mumkin. Mazkur metod o‘quvchilarni bir jamoa bo‘lib ishlashishga hamda hamfikrlilikka o‘rgatadi. Bunda ijodkorning „Hayotga muhabbat“ hikoyasi asosida quyidagi kabi muammoli savollarni o‘rtaga tashlash mumkin:

1. „Hayotga muhabbat“ hikoyasida nega Bill hamrohini tashlab ketdi? Bunga uni nima majbur qildi?
2. Hikoya qahramoni nega xaltasidagi oltinlaridan voz kechadi?
3. Yozuvchi „Hayotga muhabbat“ hikoyasi orqali nima demoqchi? Qanday g‘oyani ilgari surmoqchi?

O‘quvchilar guruh bo‘lib kelishgan holda savollarga yechim topadilar. Sinf sharoitidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni ikki, uch va hokazo shakllarda guruhlarga ajratish mumkin.

„Why?“ („Nima uchun?“) muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlarni rivojlantiradi va faollashtiradi. „Nima uchun“ sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. „Nima uchun?“ so‘rog‘ini beradilar va sxema chizib, shu savolga javob yozadilar.



„Men bilaman“ metodi. Mazkur metoddan foydalanish jarayonida, avvalo, o‘quvchilarni mustaqil fikrlay olishga o‘rgatish, shu bilan bir qatorda, ularning o‘z fikrini aniq bayon qila olishi va so‘z boyligini oshirishga, ma’naviy-ruhiy boyishiga ko‘proq diqqat qaratish lozim. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchining fikrini inobatga olishi, hech bir o‘quvchini e’tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Sinf imkoniyatidan kelib chiqib, o‘quvchilar to‘rt, besh yoki undan ko‘p guruhlariga ajraladi. Har bir jamoaga bir donadan oq qog‘oz tarqatiladi. Guruh sardorlari – liderlar saylanadi.

Shundan so‘ng guruhlariga o‘quvchilarning xohishiga ko‘ra o‘zlari yoqtirgan asar qahramoni yoki eng yaxshi ko‘rgan ijodkor, shoir nomi bilan bog‘liq nom beriladi. Vaqt taqsimlanadi.

Guruhlarning mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari asosan savol-javoblar vositasida baholanadi. Savol hamda topshiriqlarning ma’lum qismi o‘quvchilar tomonidan tuzilishi ham maqsadga muvofiq. Zotan, o‘quvchi uchun o‘zi tuzgan savolga yana bir sinfdoshi tomonidan beriladigan javob qiziqarli bo‘lishi tabiiy. Bu holatda ularning mavzuni chuqurroq o‘rganishga, bir-biridan qiziqarli savollarni topish uchun intilishlariga sharoit yaratiladi, ularda baholash ko‘nikmasi shakllanib boradi.

Ushbu metoddan asosan yirik mavzular oxirida, takrorlash uchun mashqlar orasida foydalanish mumkin. Bunda guruhlar orasida o‘zaro savol-javoblar orqali bahs-munozara tashkil etiladi. Muayyan guruh a‘zosi keyingi guruhga o‘z tuzgan savolni taqdim etadi. Shu tariqa birinchi guruh ikkinchi guruhga, ikkinchi guruh uchinchi guruhga va hokazo tarzda jarayon davom ettiriladi. Imkon qadar jamoadagi har bir o‘quvchining savol-topshiriqlar orqali qatnashishi ta‘minlanishiga erishish zarur. Jarayon so‘ngida o‘quvchilar orasidan eng yaxshi savol mualliflari hamda beerilgan savollarga javob topishda faol ishtirok etgan o‘quvchilar taqdirlanadi. Ushbu metodidan Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ hikoyasini o‘rgatishda samarali foydalanish mumkin. Bu orqali, avvalo, o‘quvchining asarni qay daraja o‘rganganligini bilib olish mumkin. Bunda o‘quvchidan chaqqonlik va topqirlik talab qilinadi. O‘qituvchiga barcha o‘quvchilarni birdaniga nazorat qilish imkonini beradi. O‘quvchilarni tez va oson baholay oladi.

„Algoritm“ metodi. Ushbu metod nomi X asrda yashagan buyuk bobokalonimiz, matematik Al-Xorazmiyning ismi bilan ataladi. „Algoritm“ metodidan, ayniqsa, ma‘lum bir ijodkorning hayoti va ijodini xronologik usulda o‘rgatishga bag‘ishlangan adabiyot darslarida foydalanish juda qo‘l keladi. Bu Jek London hayoti va ijodini o‘rgatishda aniq ketma-ketlikka rioya qilishga, hayot faoliyatini muayyan tartibda joylashtirishga yoki biror asardagi voqealar uzviyligini ta‘minlash imkon beradi. Bu orqali o‘quvchining ma‘lumotlarni qay darajada o‘zlashtirganligi haqida aniq tasavvur paydo bo‘lishiga zamin yaratiladi.

Jek London hayoti va ijodini o‘rgatishga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarda **„Korporativ learning“** („birlashmoq“, „birga ishlamoq“) hamkorlikda ishlash metodidan ham samarali foydalanish mumkin. Mazkur metod o‘quvchilarni bir jamoa bo‘lib ishlashishga hamda hamfikrlilikka o‘rgatadi. Bir asar yuzasidan muammoli savol o‘rtaga tashlanadi va guruh kelishgan holda bunga yechim topadi. Sinf sharoitidan kelib chiqqan holda o‘quvchilar ikki, uch va hokazo shakllarda guruhlarga ajratilishi mumkin.

Xullas, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Jek London hayoti va ijodini o'rgatishga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarida zamonaviy usul va metodlardan, ilg'or xorijiy tajriba va an'analardan samarali foydalanish dars sifatining oshishiga hamda darsdan kutilgan maqsadning to'liq amalga oshishiga bevosita xizmat qiladi.

Ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashda foydalaniladigan nazorat turlaridan biri test topshiriqlari bo'lib, ularni maqsadga muvofiq holda shakllantirish va o'z o'rnida foydalanish zarur. Test topshiriqlari o'quvchilarning o'quv rejadani o'rin olgan mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholashda muhim vazifa bajaradi.

Ammo, afsuski, hozirgi kunda umumta'lim maktablarida muayyan mavzular yoki chorak so'ngida o'quvchilar bilim va malakalarini aniqlash uchun adabiyot o'qituvchilari tomonidan tuzilayotgan test topshiriqlarining ko'pchiligi an'anaviy standart test savollari hisoblanadi. Nostandart testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi. Bunday topshiriqlarni tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Zero, test topshiriqlari o'quvchilar tomonidan to'g'ri javobni topish jarayonida muayyan bilish qiyinchiliklarini his etishi, muammoni hal etish maqsadida aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasash kabilarni bajarishi orqali ularda barkamollikka zamin tayyorlaydigan sifatlar: iroda, ongli intizom, muayyan o'quv muammolarini hal etishga safarbarlik, chidamlilik, sabr-toqat, yutuqlarga erishish uchun bilimi va kuchini sarf etishi orqali shaxs sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratishi zarur.

Mana shu omillarni hisobga olgan holda biz bitiruv malakaviy ishimizda 10-sinfda jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o'rgatish bo'yicha tuzilgan namunaviy nostandart test topshiriqlarini taqdim qilmoqdamiz. Bunday test topshiriqlarini kompyuterda, Ispring dasturi orqali tuzish mumkin va nazorat shakli shunga yarasha kompyuterda o'tkaziladi.

1-5- test topshiriqlarida an'anaviy test savollaridan farqli ravishda o'quvchi bir necha javobni tanlab, kompyuter xotirasiga ✓ belgisini kiritishi mumkin.

Javoblar soni uchun belgilangan miqdor shart emas. Savolning mazmunidan kelib chiqib bir necha to'g'ri yoki xato javob kiritilishi mumkin. Bu esa o'quvchini ko'proq o'ylashga, barcha to'g'ri javoblarni aniq topishga undaydi. Chunki birorta to'g'ri ma'lumot e'tibordan chetda qoldirilsa yoki noto'g'ri javob tanlansa, o'z-o'zidan o'quvchining balli ham past bo'ladi.

1.Jek Londonning qaysi asarlarida sarguzasht motivi yetakchilik qiladi?	
✓	„Qor qizi“
✓	„ Insonga ishonch“
✗	„Bo‘ri bolasi“
✗	„Izg‘irin bolallari“
✗	„Martin Iden“

2. Jek Londonning „Hayotga muhabbat” asari haqida to‘g‘ri malumotni toping?	
✓	Chuqurning suvini quritib bo‘lmasdi. Lekin u o‘zini ancha bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi. Lekin uning uncha ovqat yegisi yo‘q edi. Qorin og‘rig‘i ancha pasaygandi. U baliqlarni xomligicha og‘ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladi.
✗	O‘rmon chetida sayroqi qorayaloqlarning kuylayotgani, taxta yo‘nish zavodi ortidagi River o‘tlog‘ida nemislarning safda yurish mashg‘ulotlarini bajarayotganliklari eshitilib turardi.
✓	Hammasi bo‘lib oltmish yetti dona gugurt cho‘pi bor edi.U yanglishgan bo‘lmaz,deb gugur cho‘pini uch marta sanab chiqdi. Gugurtni uch bo‘lakka ajratib, har bir bo‘lagini bir qog‘ozga o‘radi.
✗	Qiz Bo‘rixonni xristian diniga kirishga undadi.
✗	Darsga kirish o‘rniga qush uyasini axtarib yurganim, muzlagan Saara ko‘li ustida sirpanchiq uchib yo‘qotgan vaqtimga shunchalar achinib ketdim

3.Jek London qalamiga mansub romanlarni toping?	
✓	„Dengiz bo‘risi”
✗	„Bo‘ri bolasi”
✓	„Martin Iden”
✓	„Uch qalb”

4.Jek Londonning qaysi asarlari mamlakatning shimoliy o‘lkalari to‘g‘risida hikoya qiladi?	
✗	„Qor qizi“
✓	„Bo‘ri bolasi“
✓	„Izg‘irin bolalari“

5. Alfons Dode qalamiga mansub romanlarni toping?	
✓	„Tarasonlik Tartaranning sarguzashtlari”
✓	„Kichik Fromon va katta Risler”
✓	„Roza va Ninetta”

Quyidagi test topshirig‘ida esa o‘quvchi to‘g‘ri javoblar ustiga sichqonchani bosib chiqish orqali javob beradi va shunga mos baholanadi.

6. Alfons Dodening „So‘nggi saboq” asariga mos tasvirlarni aniqlang.		
✓ 	✓ 	✗ 



7-9-test topshiriqlarida o‘quvchilar ikkinchi ustundagi ma’lumotlarni sichqoncha yordamida birinchi ustundagi axborotlarga mos holda joylashtirib chiqishlari kerak bo‘ladi.

7. Quyida berilgan ijodkorlar nomlariga mos ma’lumotlarni to‘g‘ri tartibda joylashtiring.	
Jek London	U o‘n yetti yoshida Ernest isimli akasi bilan Parijga ko‘chib boradi.
Alfons Dode	U Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida fermer oilasida tug‘ilgan.
Jek London	„Tegirmonimdan xatlar“ deb nomlangan kitobida hikoyalari jamlangan edi
Alfons Dode	Butun ijodiy faoliyati davomida yigirmaga yaqin roman, yuz ellikdan ortiq hikoya yozadi.

8. Alfons Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasidan keltirilgan ushbu fikrlar kimga tegishli ekanligini to‘g‘ri tartibda joylashtiring.	
— Shoshma, bolakay, ulgurasan o‘sha maktabingga.	Mo‘se Amel
Biz elzasliklar o‘qishni doimo ortga suramiz — fojeamiz ham ana shunda. Sizlar o‘zingizni fransuz deb bilasiz, vaholanki, o‘z ona tillaringda to‘g‘ri gapirishni ham, yozishni ham eplay olmaysiz.	Frans

Men bo'lsam zo'rg'a yoza olardim! Demak, endi yozishni yaxshi o'rganolmayman! Butun umr savodsiz bo'lib qolaman! Darsga kirish o'rniga qush uyasini axtarib yurganim, muzlagan Saara ko'li ustida sirpanchiq uchib yo'qotgan vaqtinga shunchalar achinib ketdim-ki! Bir oz oldin zerikarli bo'lgan kitoblar endi men uchun qadrdon do'stlardek bo'lib tuyuldi.	Vaxter
--	--------

9. Moslikni toping?	
Yumor – kinoya hamda tasvirdagi aniqlik, kuzatishlardagi teranlik.	Jek London
Adibning qahramonlari har qanday holatda ham insoniylikka xiyonat qilmaydi.	Alfons Dode
Yoshi yigirmaga yetmasidanoq bir qancha jurnallar bilan muxbir hamda teatr tanqidchisi sifatida hamkorlikni yo'lga qo'yadi.	Jek London
U asarlarida tabiat bilan uyg'unlashgan kurashchan, zahmatkash insonlar hayotini tasvirlagan.	Alfons Dode

10-11- test topshiriqlari turida esa o'quvchi savolga javobni kompyuter xotirasiga yozma shaklda kiritadi va baholanadi.

10. Alfons Dodening „So'nggi saboq” asaridagi bosh g'oya?
✓ Millatning ruhi bo'lgan milliy tilni- sevish.

11. Jek Londonning „Hayotga muhabbat” asaridagi „Titchinichili” deb nomlangan ko'l mahalliy tilda qanday ataladi?
✓ „Kichik og'ochlar o'lkasi”

12-13- test topshiriqlarida esa savolning javobi uning ochiq turgan joyiga raqam shaklida kiritiladi.

12. Alfons Dodening avtobiografik xarakterga ega bo'lgan „Kichkintoy“ nomli romani ____ - yilda yozilgan(raqam bilan kiriting)?


✓ 1868

13. Jek Londonning adabiy faoliyati nechanchi yilda boshlangan? (Raqam bilan yozib javob bering)

✓ 1893

14-15 test topshiriqlari ham nostandart test turlaridan biri bo'lib, testning mazkur shakli hozirgi kunda ancha ommalashmoqda. Bu topshiriq turida o'quvchi bir necha to'g'ri javoblarni xato variantlar orasidan ajratib olishi lozim. Bunda 1-5- test topshiriqlaridan farqli ravishda tanlanayotgan javoblar nisbatan aniq ko'rinib turadi.

14. Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ asariga mos tasvirlarni topib belgilang?

1		2		3	
4		5		6	
✗	1, 2, 4, 5.				
✓	2, 3, 4, 6.				

✗	3, 4, 5, 6.
✗	1, 3, 4, 5.

15. Alfons Dode o‘z davrida ijod qilga qaysi adiblar bilan yaqin munosabatda bolgan? 1) Gyustav Flober; 2) Emil Zolya; 3) Molyer; 4) Gi de Mopasson; 5) Aleksandr Dyuma; 6) Ivan Turgenev	
✓	1, 2, 6.
✗	1, 2, 4.
✗	1, 2, 5.
✗	2, 3, 5.

FSMU metodi asosida jadvalni to‘ldiring.

Savol: „So‘nggi saboq“ hikoyasida “Biz elzasliklar o‘qishni doimo ortga suramiz – fojiamiz ana shunda” jumlasida zamiridagi haqiqat nimada edi?

F	Fikringizni bayon eting	
S	Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
M	Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U	Fikringizni umumlashtiring	

Umuman, dars mashg‘ulotlarida Alfons Dode hayoti va ijodini yangi pedagogik texnologiyalar vositasida o‘rgatish o‘quvchilarni vatanga, onaga muhabbat, insoniylik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

2.2. Jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanib o‘rgatish

Adabiyot darslarida o‘quvchini ilm olishga yo‘naltiruvchi motivatsiyalardan bittasi – o‘qituvchining ishonchi. O‘quvchi qalbida o‘qishga intiltiruvchi ichki ehtiyoj hissini shakllantirish uchun adabiyot darslarida zarur sharoit, imkoniyat

vujudga keltirilmog'i lozim. Bu sharoitning yuzaga kelishi va uning o'quvchi tomonidan anglab olinishi bola shaxsining rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Badiiy asarni o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish o'quvchiga tayyor bilimlarni berish emas, balki uni ixtiyoriy motivlar, maqsadlar hamda avvalgi tajribalar asosida faoliyat ko'rsatadigan, maqsadga erishish yo'lida aqliy zo'riqishga undaydigan holatga solishdan iboratdir. Har bir o'quvchini boriday qabul qila oladigan tajribali o'qituvchi har bitta bolaning ta'lim motivatsiyasini hamisha xayolida tutadi. Ba'zan amaliyotda o'quv ishlarining samaradorligi, o'quvchilar o'zlashtirishi motivatsiyasiz baholanib, bolalarning bilimiga ularning bilishga bo'lgan ehtiyojdan ajratilgan holda qaraladi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlash va bilim olishga motivatsiya uyg'otishda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar qo'yilishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning ma'nan sog'lomlashuvi uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. Afsuski, dars jarayonida o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini ta'minlash emas, balki o'z faoliyatini tashkillashtirish turadi. O'qituvchi, avvalo, zamonaviy adabiyot darslarini to'g'ri, mustaqil tafakkur va faoliyatga asoslangan holda tashkil qilishning shartlari nimadan iborat ekanini aniqlab olishi zarur. Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarini samarali tashkil tishda har qanday mavzuga nisbatan o'quvchilarda ichki motivatsiya uyg'otish va asar ustida ishlashni mana shu ichki ehtiyojni qondirish niyatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga boshqa mamlakatlardagi ta'lim texnologiyalarini va ularning tajribalarini o'rganish va mos tomonlarini tadbqiq etish jarayoni ham jadal rivojlanib bormoqda. Adabiyot ta'limida qo'llanilayotgan **xorijiy tajribalar** modulli tizim, case study, masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar kabi yangi texnologiya va metodlar bilan boyimoqda.

O'qitish jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini kiritib, **noan'anaviy ta'lim usullaridan**: „Konferensiya darsi“, „Seminar darsi“, „Aralash darslar“, „Kasbga

bog‘lab dars o‘tish“, „Badiiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish“, „Evrika“ („O‘ylab top“); **ta’limning qiziqarli faol usullaridan:** „Kichik va katta guruhlarda ishlash“, „Rolli o‘yinlar“, „Sahna ko‘rinishi“, „Krossvordlar yechish“, „Zakovat savollari“, „Test-sinov topshiriqlari“, „Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o‘tish“, „Sinkveyn o‘yinlari“; **shuningdek, ta’limning innovatsion (yangi) usullari:** „Improvizatsiya“, „Aqliy hujum“, „Debat“, „Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul“, „Klaster usuli“, „Muammoli vaziyat“, „Muayyan holat, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish“, „Har kim har kimga o‘rgatadi“, „Nuqtayi nazarining bo‘lsin“, „Multimediya“ va boshqalarni qo‘llashi muhimdir“.¹⁵

Tadqiqot mavzumiz hisoblanmish 10- sinfda jahon adabiyoti namoyandalari: mashhur amerikalik yozuvchi Jek London, roman va hikoyalari bilan fransuz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan Alfons Dode hayoti va ijodini o‘zimizning an’anaviy metod va usullarimiz bilangina cheklanib qolmasdan, ilg‘or xorijiy texnologiyalar va usullardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning qiziqish doirasi hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, albatta, ko‘zlangan natijaga olib keladi.

Shu ma’noda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan adabiyot darslarida Jek London hamda Alfons Dode hayoti va ijodini o‘rgatish jarayonida turli xil metodlardan foydalanish mumkin.

«Ruchka stol ustida» metodi

Bu metod amaliy mashg‘ulot uchun juda qulay. Savolga o‘zining javob variantini yozgan kichik guruhdagi o‘quvchi ruchkasini stol ustiga qo‘yib varaqani yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan o‘quvchi ruchkasini stolga qo‘ymaydi.

Bir nechta kichik guruhlardagi o‘quvchilarning qo‘yilgan bir xil savolga javoblari yig‘ishtirib olinib birgalikda muhokama qilinadi. Bu metod afzalliklari: o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor emasligini ko‘rib turadi; mashg‘ulotga tayyorlanmagan o‘quvchi og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu

¹⁵Ibragimova M., Shermatova H. Ta’lim jarayonida faol usullarni qo‘llash. Uzluksiz ta’lim. Toshkent, 2005. 5-son, 16-17- betlar.

yuzasidan anchagina foydali bilimlar oladi; bu metod kichik guruhda olib boriladigan ish bo'lib, o'quvchi intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o'zining javob varianti ustida uzoq o'ylab o'tiradigan o'quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflab yuboradi.


Shuningdek talaba mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham guruhga pand beradi; talabalar o'z javoblarini ikki marta, ya'ni yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi. Masalan, Alfons Dodening „So'nggi saboq“ hikoyasi yuzasidan quyidagicha savollar yozilgan varaqalarni berish mumkin:

T/R	Savollar	Javoblar
1	<i>Hikoyada tasvirlangan davrga munosabat bildiring?</i>	
2	<i>Mosye Amelga tavsif bering.</i>	
3	<i>Frans nima uchun so'nggi saboqda muallimning barcha fikr-mulohazalarini yaxshi tushuna boshladi?</i>	
4	<i>Fransning «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?» degan gapini izohlab bering.</i>	
5	<i>Hikoya voqelarini o'zbek tilining yaqin o'tmishdagi taqdiri bilan qaysidir jihatdan bog'lash mumkinmi?</i>	
6	 <i>Rasmga izoh bering</i>	

T – jadval texnologiyasi

“T-jadval” texnologiyasi o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko‘p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi. Ushbu texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:


- o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi;
- o‘quvchilar “T-jadval” metodini qo‘llash shartlari
- o‘quvchilar guruhlar yoki juftliklarga biriktiriladilar;
- ajratilgan vaqt oralig‘ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko‘ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya’ni jadvalning chap va o‘ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadilar;
- guruhlar (juftliklar) tomonidan to‘ldirilgan jadvallar o‘zaro solishtiriladi;
- masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi yoki yagona “T-jadval” shakllantiriladi.



O'quvchilar asardagi ikkala obrazni solishtirib o'rganar ekan, ularning ijobiy va salbiy tomonlari, yutuq va kamchiliklarini yodga olish barobarida o'quvchilarda o'zaro taqqoslash qobiliyati yanada rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida sarmoniyatini yanada chuqurroq anglashga va hayot bilan bugungi kun bilan bog'lashga zamin hozirlaydi.

“Kungaboqar” texnologiyasi

O'quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o'rta bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo'yadilar. Bu uslubdan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin. Masalan, A.Dode hayoti va ijodi yuzasidan o'tilgan darsni mustahkamlash maqsadida quyidagi ko'rinishda tashkil etish mumkin.



Express-testlar

Express-testlar ma'lum tushunchalar ketma-ketligidan so'ng (1-2 mavzu) shu mavzularda o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini nazorat qilish va uni mustahkamlash uchun o'tkazish maqsadga muvofiq. Express-testlar adatda shu mavzularga oid 3-4 ta kichik va yengil mashg'ulot topshiriqlardan yoki testlardan iborat bo'ladi. Express-testlarni darsning ichida qisqa vaqtlarda (5-10 min) o'tkazish mumkin. Topshiriqlar ko'p variantli tizimda kartochkalarda tarqatiladi. Bu testni o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchilar DTS minimal talablarini o'zlashtirganliklari tezkor ravishda aniqlab olishdan iborat.

o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajalarini nazorat qilish va baholash topshiriqlarining namunalari turli xil manbalardan yig'ilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash o'qituvchilar uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Topshiriqlar quyidagi bendlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Bo'sh qoldirilgan joylarni zarur so'zlar bilan to'ldiring
2. Jumlaning ma'nosidan kelib chiqib, qavslar ichida keltirilgan so'zlardan mosini tanlang va tagiga chizing
3. To'g'ri javobni toping
4. Ikki tasdiqdan to'g'risini ajrating
5. Ta'rifdagi (jumladagi) xatoni toping
6. Quyida keltirilgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqib, mantiqiy juftliklarni tuzing
7. Matematik tushuncha va atamalar talqiniga ko'ra jumlani davom ettiring
8. Quyida keltirilgan formulalar qaysi matematik tushuncha xossalriga tegishli ekanligiga qarab, jufti-jufti bilan mos guruhlariga ajrating
9. A ustunda berilgan atamaga B ustundagi tegishli talqinni mos qo'ying
10. Andazaga ko'ra masala tuzing va uni yeching

O'qituvchi o'quv taxtasiga bir nechta atamaning nomlarini yozib raqamlab chiqadi. So'ng esa, bu atamalarning (tushunchalarning) nomini aytmasdan ta'rifini ixtiyoriy tartibda o'qiydi. O'quvchilar esa bu atama (tushuncha) qaysi raqam ostida yozilganligini topishlari so'raladi.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining dastur va darsliklarida (10-sinf) jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodining berilishi

Hozirda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan, barcha islohotlarning mazmun-mohiyati bir narsaga, ya'ni ta'limning sifatini oshirish, dars jarayonida kam kuch sarflab, ko'proq samaradorlikka erishishga qaratilgan. Biz ham ushbu nazariyaga tayangan holda umumta'lim maktablarida jahon adabiyoti namoyandalari ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'qitish yuzasidan bir nechta dars ishlanmalari tayyorladik. O'quvchilar diqqatini dars jarayoniga jalb qilish, berilayotgan ma'lumotlarni ular ongiga tez va oson yetib borishini ta'minlash maqsadida, axborot texnologiyalari faolligidan unumli foydalangan holda badiiy asar mohiyatini o'quvchilarga yetkazib berish, xoh tarixiy, xoh zamonaviy, xoh detektiv mavzuda yozilgan asar bo'lishidan qat'iy nazar, O'quvchilarning asardan zavq olishlariga, asar g'oyasiga, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni oson tushunishlariga yordam beruvchi noan'anaviy dars turlarini olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish va shu orqali o'quvchi ongini o'stirish va shu bilan bir qatorda davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yordam beradi.

Shu ma'noda umumta'lim maktablarida jahon adabiyoti namoyandalari ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'qitish ham o'qituvchidan o'ziga xos bilim hamda malakani talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning adabiyot fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ta'kidlanganidek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng

sara namunalari o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojidadagi muhim omil vazifasini ado etadi.

O'quvchilar turli davr va mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e'tiqodlarni aks ettirgan badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan oddiydan murakkabga tamoyiliga asosan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va insonlar tabiatining rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emotsional (hissiy) munosabat bildiradigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtayi nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Umumta'lim maktablarining dastur va darsliklarida 10-sinf o'quvchilariga jahon adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodini adabiyot fanini o'rganishning tayanch darajasida o'rgatishga jami 4 soat vaqt ajratilgan.

Umumta'lim maktablarining adabiyot fanidan o'quv dasturida 10- sinfda Jek London hayoti va ijodi, „Hayotga muhabbat“ hikoyasini o'rgatish uchun 2 soat vaqt ajratilgan. Unda yozuvchi Jek London XX asr Amerika adabiyotining yirik namoyandasi ekanligi, asarlarida chuqur badiiy tahlillar orqali betakror obrazlarning yaratilganligi. „Hayotga muhabbat“ hikoyasi inson irodasi va ishonchiga bag'ishlangan asar ekanligi.¹⁶

10- sinfda Alfons Dodening hayoti va ijodi, „So'nggi saboq“ hikoyasini o'rgatish uchun 2 soat vaqt ajratilgan. Unda Alfons Dode hayoti va ijodiy faoliyati; „So'nggi saboq“ hikoyasida fransuz tiliga munosabatning ifodalanishi.

¹⁶ Umumiy o'rta ta'limning Adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent: 2017. – B. 65.

Ona tili muallimining ruhiy holati. Hikoyada o'z ona tilida erkin ta'lim olish yuksak qadriyat ekaniga urg'u berilgan.¹⁷

Bundan tashqari, o'quv dasturida ko'rsatilishicha, umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarda adabiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan mavzularni yana 2 soat hajmida chuqurroq o'rgatish lozimligi belgilab qo'yilgan. Bu esa har bir jahon adabiyoti namoyandalari ijodi haqida kengroq ma'lumot berishga, o'quvchilar ko'proq ishlashishga va darslardan kuzatilgan maqsadni imkon darajasida to'liqroq amalga oshirishga bevosita yordam beradi.

Jek London – jahon adabiy nasrida o'z o'rniga ega bo'lgan ajoyib realist ijodkordir. Xalq ommasining o'z huquqlari uchun kurashishini, mavjud jamiyat illatlarini, inson va tabiat munosabatlarini mohirona yoritib bera olgan ushbu amerikalik adib XX asrning buyuk so'z san'atkorlaridan bo'lib qoldi. O'zbek tilida „Martin Iden“, „Qish haqida“, „Hayotga muhabbat“ asarlari chop etilgan yozuvchining hayoti va ijodi bilan o'quvchilar bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim bosqichidanoq tanishib boradilar. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun chop etilgan „Adabiyot“ darslik-majmuadan yozuvchining qisqa tarjimai holi hamda „Hayotga muhabbat“ hikoyasi o'rin olgan. Jek London hayoti va ijodini o'rgatishga bag'ishlangan adabiyot darslarida o'qituvchi Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturidan kelib chiqib, belgilangan 2 soat davomida „Jek Londonning XX asr Amerika adabiyotining yirik namoyandasi ekanligi; yozuvchi asarlarida chuqur badiiy tahlillar orqali betakror obrazlarning yaratilganligi; „Hayotga muhabbat“ hikoyasi inson irodasi va ishonchiga bag'ishlangan asar ekanligi“ masalalarini yoritib berishi, shu orqali o'quvchilarni jahon adabiyoti an'analari bilan hamda tanishtirishga, ularda sabr-matонат, ertangi kunga ishonch kabi ijobiy sifatlarni rivojlantirishga erishmog'i lozim bo'ladi.

¹⁷ Umumiy o'rta ta'limning Adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent: 2017. – B. 65.

3.2. Jek London va Alfons Dode asarlarini o'rgatish bo'yicha namunaviy dars ishlanmalari

Mavzu: Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ hikoyasini o'rgatish bo'yicha namunaviy dars ishlanmasi

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga Jek Londonning „Hayotga muhabbat“ asari yuzasidan ma'lumotlar berish. Asar g'oyasi, qahramonlar xarakterini ochib berish va mavzu yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni ota-onaning, hayotning qadriga yetishga hamda chin do'stlikni ulug'lashga o'rgatish. Har qanday sharoitda ham olg'a intilish va irodali bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning chin do'stliking hayotdagi ahamiyati, inson qadrining hamma narsadan ustunligi, ahillik haqidagi qarashlarini yadana rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: darslik, rasmlar, tarqatma materiallar

Dars rejasi:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Yangi mavzuga olib kirish – 10 daqiqa.

Yangi mavzu: „Hayotga muhabbat“ asari – 10 daqiqa.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Asar yuzasidan savol-javoblar – 20 daq.

O'quvchilar bilimini baholash rag'batlantirish – 2 daqiqa.

Uyga vazifa berish – 1 daqiqa.

I. Tashkiliy qism: O'quvchilar bilan salomlashiladi. O'quvchilar davomati jurnalga qayd etilgach, ularning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. Yangi mavzuga olib kirish: Oldingi darsda o'tilgan „Jek London“ mavzusi mustahkamlab boriladi. Uyga vazifa guruhlarda daraxtdagi aylanalar jadvalni to'ldirish orqali, yakka holda suhbat orqali mustahkamlanadi. Shundan

keyin yangi „Hayotga muhabbat“ hikoyasi mavzusi oldingi darsdagi mavzuga bog‘langan holda o‘quvchilarga tushuntiriladi.



O‘tilgan mavzu, Jek London hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar yuqorida ko‘rsatilgandek rasmi jadval ko‘rinishida to‘ldirilgandan keyin, o‘quvchilarga mavzuga oid ochiq testlar beriladi.

T/R	Savollar	Javoblar
1	Jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Jek London qayerda tug‘ilgan edi?	
2	Jek Londonning adabiy faoliyati qachon boshlangan?	
3	Jek London qalamiga mansub romanlar?	
4	Qaysi asarlarida sarguzasht motivi yetakchilik qiladi?	
5	Har doim erkka intiladilar, o‘z burch va majburiyatlarini har xil sharoitlarda chin dildan bajaradilar, hayot mashaqqatlarida toblangan, har qanday holatda ham insoniylikka xiyonat qilmaydi. Ushbu fikrlar nima haqida?	
O‘quvchining ismi, sharifi:		
To‘g‘ri javoblar soni:		

II. Yangi mavzu bayoni:

Jek London „Hayotga muhabbat“ hikoyasida insonni tabiat kuchlari bilan yonma-yon, unga basma-bas tarzda tasvirlaydi. Insonning kurashuvchanligi va umidiga urg‘u beradi. Hikoya qahramonining hayotga bo‘lgan muhabbati o‘lim ustidan g‘alaba qozonadi. Hikoya o‘ziga xos syujet qurilishiga ega. Boshida yo‘lga chiqqan, aniqrog‘i borgan yo‘lidan iziga qaytayotgan ikki yo‘lovchining holati tavsirlanadi. Ulardan biri – Bill oyog‘i cho‘loqlanib qolgan sherigini tashlab ketadi. Shundan keyin bepoyon kengliklarda bittagina qahramonning o‘zi qoladi. Yo‘lda boshidan kechirgan mashaqqatlari, ochlikdan sillasi qurib, tabiatning turli ne‘matlaridan tatib ko‘rishlari, atrofidagi hayvon va qushlarni tutib yeyishga urinish va boshqalari juda ta‘sirli va aniq tasvirlanadi. O‘rtda qolgan yo‘lovchini Jek London negadir nomlamaydi. Oddiygina qilib «odam» deb qo‘ya qoladi. Bu bilan adib nima demoqchi bo‘lgan? Balki muallif mana shu birgina obraz misolida butun insoniyatning matonatini, sabr-bardoshini aks ettirib bermoqchi ham bo‘lgandir? Odatda, Jek London asarlarida oltin izlovchilar, oltinni qo‘lga kiritish yo‘lida turli mashaqqat va sarguzashtlarga duch kelgan insonlar taqdiridan hikoya qiladi. «Hayotga muhabbat» hikoyasining ikki qahramoni ham kerak manzilga yetib borib, xaltalariga keraklicha – o‘zlari ko‘tarishga kuchi yetguncha oltin solib olgan ikki kimsa. Shu ikki inson oltin bilan sinaladi. Hikoya mazmunida inson uchun bu olamda oltindan ko‘ra muhimroq narsa, ya‘ni tirik qolish, halovatda yashash va o‘z maqsadiga erishish yo‘lida tinimsiz intilish muhimligiga doir fikrlar mujassam topgan.

Mustahkamlash:

Yangi mavzu AKTdan foydalangan holda turli rasmlar va slaydlar orqali tushuntirib bo‘lingach, o‘quvchilar birgalikda fikr-mulohaza yuritiladi. O‘quvchilar asarning eng qiziqarli joylaridan parchalar o‘qiydilar. Shundan keyin yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida „Chala xat“ metodidan foydalanish

maqsadga muvofiq. „Chala xat“ metodini o‘quvchilar guruh bo‘lib yoki yakka holda ishlashlari mumkin bo‘ladi. Ammo guruh bo‘lib ishlash samarali natija beradi. Bunda guruhlarga namunada ko‘rsatilgandek asarning eng qiziqarli joylaridfan olingan parcha taqdim qilinadi. O‘quvchilar parchani o‘qib, yangi mavzuda olgan bilimlariga tayangan holda nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yishlari kerak bo‘ladi.

CHALA XAT

U janub tomonga qaradi. Mana shu ko‘rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir,ko‘li bor, xuddi o‘sha tomonda,sahrosidan mudhishdoirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ydi. U turgan soydaryosining irmog‘i,esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko‘rfaziga,dengiziga quyiladi. Uning o‘zi u yerlarga hech qachon....., lekin buning hammasiniko‘rfazi kompaniyasining xaritasida ko‘rgan edi.

O‘quvchilar berilgan batman qog‘ozlarni kerakli so‘zlar bilan to‘ldirib bo‘lgandan keyin o‘qituvchi guruhlarining batman qog‘ozlarini almashtirib beradi va monitorda ushbu matnning to‘la matni namoyish etiladi.

CHALA XAT

U janub tomonga qaradi. Mana shu ko‘rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir, Katta Ayiq ko‘li bor, xuddi o‘sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy Qutb doirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ydi. U turgan soy Kappermayn daryosining irmog‘i, Kappermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko‘rfaziga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o‘zi u yerlarga hech qachon bormagan, lekin buning hammasini Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasida ko‘rgan edi.

Bu metodning afzalligi shundaki, o‘quvchilarningdarsga bo‘lgan qiziqishini oshirish asnosida darsga diqqat bilan qarashga, har bir so‘z, jumlaning mohiyatini

teran anglashga, lozim bo'lsa eslab qolishga undaydi. Bu topshiriqni dars jarayonida ishlatar ekanmiz, guruh bo'lib ishlash jarayonida o'quvchilarning bir-birini tinglash qobiliyati ham rivojlanib boradi. Masalan, yuqoridagi misolda sakkizta so'zni joyiga moslab qo'yishimiz kerak. Bu so'zlar shunday tanlab olinganki, o'quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlarini ham takrorlashga yordam beradi. Masalan, geografiya fani bilan, joy nomlarining geografik yoylashuvlari, xaritalarni esga tushirsa, ona tilidan olgan bilimlarini ham mustahkamlab oladi. Masalan, geografik joy nomlarining bosh harflar bilan yozilishi, so'zlarning o'ziga xos ma'nolarini esga oladilar. Shu tariqa o'quvchilarda bir darsning o'zida, bir nechta fanlar bilan integratsiya vujudga keladi.

Dars yakuni. Baholash. Darsda faollik ko'rsatgan o'quvchilar baholanib boriladi

Uyga vazifa. „Hayotga muhabbat“ hikoyasining tarbiyaviy qiymatini tushuntirib bering.

Umumiy o'rta ta'lim maktabalrida Alfons Dode hayoti va ijodini o'rgatish bo'yicha namunaviy dars ishlanmasi

O'qituvchi: Yo'ldashov Javlon

Sana: _____

Fan nomi: Adabiyot

Sinfi: 10- sinf

Dars mavzusi: „So'nggi saboq“ hikoyasi.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga Alfons Dodening „So'nggi saboq“ asari yuzasidan ma'lumotlar berish. Asar g'oyasi, qahramonlar xarakterini ochib berish va mavzu yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni o'z tilini sevish, uni qadrlash, ulug'lashga o'rgatish. Har qanday sharoitda ham olg'a intilish va irodali bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarga til millatning ruhi ekanligi, uning bebaholigi, hamma narsadan ustunligi, haqidagi qarashlarini ko‘proq shakllantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: darslik, rasmlar, tarqatma materiallar

Dars rejasi:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Yangi mavzuga olib kirish – 10 daqiqa.

Yangi mavzu: „So‘nggi saboq“ asari – 10 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Asar yuzasidan savol-javoblar – 20 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash rag‘batlantirish – 2 daqiqa.

Uyga vazifa berish – 1 daqiqa.

I. Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashiladi. O‘quvchilar davomati jurnalga qayd etilgach, ularning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. Yangi mavzuga olib kirish: Oldingi darsda o‘tilgan „Alfons Dode“ mavzusi mustahkamlab boriladi. Uyga vazifa yakka holda qisqa savol-javoblar va guruhlarda “Harflarga yashiringan savollar” o‘yini orqali o‘quvchilar bilan oldingi dars bo‘yicha fikr-mulohazalar olib boriladi hamda shu orqali yangi mavzu nomini, “So‘nggi saboq” asari” so‘zini hosil qilamiz. Shundan keyin yangi „So‘nggi saboq“ hikoyasi mavzusi oldingi darsdagi mavzuga bog‘langan holda o‘quvchilarga tushuntiriladi. Savollar quyidagi mazmunda tuziladi:

1. Mashhur adib Alfons Dode o‘zining qaysi janrdagi asarlari bilan fransuz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirdi? J:, roman va hikoyalari

2. A.Dode 1840-yil 13-mayda qayerda tug‘ilgan? J:, Fransiyaning Nim shahrida

3. A.Dode yoshlik yillari maktablarda kim bo‘lib ishlagan? J: muallim

4. A.Dodening hikoyalari jamlangan birinchi kitobi qanday nomlanadi? J: «Tegirmonimdan xatlar»

5. Yoshlikdagi mashaqqatli yillari to‘g‘risida avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan asari qanday nomlanadi? J: «Kichkintoy»

III. Yangi mavzu bayoni:

Alfons Dodening “So‘nggi saboq” hikoyani tushunish uchun XIX asr Fransiya tarixini, ma’lum bir muddat qaysi mamlakatga qaram bo‘lgani kabi ma’lumotlarni ham bilish lozim. Hikoyada Fransiyaning Elzas va Lota ringiya hududi o‘z vaqtida nemislar tomonidanishg‘ol qilinganiga ishora bor. Undagi «... nemislarning safda yurish mashg‘ulotlari» degan jumla, shuningdek, muallimning o‘quvchilarga: «Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor darso o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi. Bugun fransuz tilidan oxirgi mashg‘ulotimiz. Iltimos, e’tiborliroq bo‘linglar!» degan murojaati hamda «Maktab tomida kaparlarning g‘uv-g‘uvlagani qulog‘imga chalindi. O‘ylanib qoldim: «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?» degan e’tiroznomasi ham shundan dalolat beradi.

Hikoyada sinf xonasi, undagi har bir predmet birma-bir aniq tasvirlanadi. Ushbu darsga har kungidan boshqacharoq kiyinib kelgan muallimning ust-boshini batafsil ta’riflaydi. U bamisoli bay ramdagidek kiyingan. Bu, tabiiyki, adibning badiiy mahoratini ko‘rsatadi. Ammo fransuz xalqi bu yerda og‘ir musibatni boshidan kechirayotganiga, xuddi o‘z ona tillarini qabrga qo‘yayotgandek bo‘lganiga, ayni paytda sinf xonasida yoshi ancha katta kishilar ham o‘tirganlariga urg‘u beradi. Hikoyadagi «biz fransuzlar doim o‘qishni orqaga suramiz» degan gap ham har kimni o‘ylantiradi. Hozirgi zamonga xolis baho beradigan bo‘lsak, nafaqat fransuzlar, balki butun dunyo yoshlari ham ko‘pincha yalqovlik bilan o‘qishni, bilim olishni orqaga suradi. Bu hikoyada esa yoshlarni bilim olishga, ona tilini sof saqlashga chaqiriq sadolari yangraydi.

„So‘nggi saboq“



Fransuz adibining ushbu hikoyasi yosh bola tilidan bayon qilinadi. Uning ismi Frans Adib Frans nazari bilan kichkinadek tuyulgan ilmiy madaniy hodisaga nazar tashlaydi; baho beradi. Hikoyani o‘qish jarayonida har bir o‘quvchi dilida bir marotaba bo‘lsa ham „iye, men ham shunday qilgandim, darsga kirishni istamay qish kunlarida sirpanchiq uchgandim, bahor kunlari esa daraxtlarga tirmashar edim kabi o‘ylar kechishi mumkin.“

Hikoya qahramoni Frans ham vaqtini behuda o‘tkazib, so‘nggi fransuz tili darsida o‘z qilmishlarida pushaymon bo‘lib o‘tiradi.



Mustahkamlash:

Yangi mavzu: „So‘nggi saboq“ asarini mustahkamlashda, „Xatolar ustida ishlash“, „Nostandart test“, „Bilts“ savol-javob usullaridan foydalanamiz. Ushbu asar mazmunini saqlagan holda, o‘quvchilarga matn beriladi. Maskur matn guruhlar o‘rtasida ishlanadi. Individual holda ishlash orqali dars mustahkamlanadi.

V. Baholash va rag‘batlantirish: O‘quvchilar darsda faol ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa:

Uyga topshiriq: Alfons Dodening „So‘nggi saboq“ hikoyasidan kelib chiqib, „Ona tilim, sen borsanki...“ mavzusida ijodiy matn yarating.

XULOSA

Ta'lim jarayoni uzluksiz ravishda rivojlanib, tadrijiy o'zgarishlarga uchrashib boradigan didaktik jarayondir. Tarixiy, innovatsion va texnologik taraqqiyot natijasida ta'limning turli bosqichlarida yangi imkoniyatlar, usullar, metodlar paydo bo'ladi. Bunda xorijiy pedagogik texnologiyalardan ham foydalanib borish dars samaradorligini ta'minlashda muhim vazifa bajaradi. Shu ma'noda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o'rgatish ham o'qituvchidan o'ziga xos pedagogik mahoratni va bilimni talab qiladi. Zero, o'quvchi qo'shni hamda jahon xalqlari ijodkorlarining asarlari orqali boshqa xalqlarining ma'naviy va madaniy muhiti, yashash sharoiti va jarayonlari, butunlay o'zgacha xarakter kasb etadigan mentalitetlar hamda insonlar qalb kechinmalari bilan yaqindan tanishadilar.

Eng asosiysi, badiiy asar qaysi xalqning shoiri yoki yozuvchisi tomonidan yaratilmasin, qahramon qaysi xalq ideali bo'lmasin, barchasi yaxlit bir maqsadga – kitobxonni (insoniyatni) ezgulikka chorlashga, uni ma'naviy tarbiyalashga qaratilgandir. Shuning uchun ham bitiruv malakaviy ishimiz vazifalaridan kelib chiqqan holda tadqiqot obyektimizdagi Jek London hamda Alfons Dode hayoti va ijodini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rgatishning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, dars mashg'ulotlarida foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy va samarador usullar hamda turli xil o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga erishdik va quyidagi xulosalarga keldik:

- o'ninchi sinfda jahon adabiyoti namoyandalarini hayoti va ijodini o'rgatishda matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, bu orqali mustaqil fikrlash va lug'at ustida ishlash, so'z boyligini oshirish o'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

- adabiyot darslarida jahon adabiyoti namoyandalarining, badiiy asar qahramonlarining, voqea-hodisalar bayoni haqidagi rasmlardan foydalanish mavzuning o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga, ma'naviy-ilmiy rivojlanishiga amaliy yordam beradi.

– ko‘z bilan ko‘rib o‘zlashtirilgan bilimning ko‘proq ta’sir kuchiga ega bo‘lishini inobatga olgan holda ta’limiy taqdimotlardan, audio hamda video materiallaridan, multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning jahon xalqlari madaniyati bilan yaqindan tanishishlariga va ularning dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladi.

– jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini o‘rgatishda nazorat shakli sifatida maqsadli savol va topshiriqlardan foydalanish asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va umumiy mazmunini to‘la o‘zlashtirishga, adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga, asar voqealari misolida o‘quvchilarning hayotga munosabatini to‘g‘ri rivojlantirishga yordam beradi.

– ijodkor hayoti va ijodini o‘rgatishda klaster, konseptual jadval, mantiqiy chalkash zanjir usullaridan, nostandart test topshiriqlaridan foydalanish aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

– dars mashg‘ulotlarida amaldagi zamonaviy interfaol metod va usullar bilan birga ilg‘or xorijiy metodlarni qo‘llash ta’lim oluvchilar o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi.

Xullas, o‘quvchilarda dastur talablari darajasida adabiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish turli omillar vositasida amalga oshiriladi. Ammo ularning barchasida darslik, o‘qituvchi – o‘quvchi ijodiy hamkorligi bosh masaladir. Bunda darslik matni ustida ishlash, savol-topshiriqlardan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish dars maqsadiga erishishda va yosh avlodni ma’naviy barkamol insonlar sifatida tarbiyalashda amaliy vosita vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
3. Maktabda o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi masalalari. Toshkent, TDPI to'plami, 1976.
4. Umumiy o'rta ta'limning Adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent: 2017.
5. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi (Adabiyot). – Toshkent, 2021.
6. Bobojonova G. Umumta'lim maktablarida Sergey Yesenin hayoti va ijodini o'rgatish / Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2019.
7. Dolimov S. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. „O'qituvchi“, Toshkent, 1967.
8. Ibragimova M., Shermatova H. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzluksiz ta'lim. Toshkent, 2005. 5-son.
9. Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. „O'qituvchi“, Toshkent, 1977.
10. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. Toshkent, „O'qituvchi“, 1996.
11. O'zbek tili va adabiyoti darsliklari mezon. – Toshkent, O'zPFITI, 1994.
12. Filosofiya lug'ati. „O'zbekiston“ nashriyoti, Toshkent. 1976.
13. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: «O'qituvchi» 1996.
14. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.

15. Boyboboev T. “O‘quvchilarda badiiy ijod ko‘nikmalarini shakllantirishning ba’zi usullari”. Til va adabiyot ta’limi, 1994, № 2-3.
16. To‘xlijev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
17. Yo‘ldoshev J. Umumiy o‘rta ta’limda „Hayotga muhabbat“ asarini o‘qitish texnologiyalari / „Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari“ mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Nukus, 2022.
18. Жек Лондон. Мартин Иден. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2016. 598 б.
19. Жек Лондон. Муҳаббат ва матонат (Таржимон: Саиджалол Саидмуродов). – Тошкент: O‘zbekiston, 2018. 224 б.
20. Jek London. Hikoyalar (Tarjimon: Shahlo Obloqulova). – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. 172 b.
21. Jek London. Bir kunlik qo‘nalg‘a (Tarjimon: Muhsin Hamidov). – Toshkent: Zabarjad-media, 2020. 224 b.
22. Jek London. Martin Iden (Tarjimon: Qodir Mirmuhamedov). – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. 480 b.
23. Anvar Namozov. Jek London: Hayot va ijod mashaqqatlariga basma-bas. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/anvar-namozov-jek-london-hayot-va-ijod-mashaqqatlariga-basma-bas>
24. Schul J.E. Revisiting and old friend: The practice and promise of cooperative learning for the twenty-first century. The Social Studies, 2012.
25. Slavin R. E. Cooperative learning. New Jersey: Prentice-Hall, 1990.
26. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
27. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
28. <http://shuhratbek.uz/interfaol-talim-metodlari/>

29. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/alfons-dode-1840-1897-fransiya>. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/alfons-dode/>
30. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/alfons-dode-songgi-saboq.html>
31. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/alfons-dode-songgi-saboq.html>